

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrası

M.RAIMJANOVA

**“INVESTITSIYA LOYIHALARI EKSPERTIZASI”
FANIDAN**

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN

USLUBIY QO'LLANMA

**Oliy ta'limning 5A230603 - “Investitsiyalarni boshqarish”
magistratura mutaxassisligi magistrantlari uchun**

TOSHKENT - 2017

“Investitsiya loyihalari ekspertizasi” fanidan amaliy mashg’ulot uchun uslubiy qo’llanma. Raimjanova M. - T.: Toshkent moliya instituti, 2017 yil. 70 bet.

Ushbu uslubiy qo’llanma magistraturaning 5A230603 - “Investitsiyalarni boshqarish” mutaxassisligi magistrantlari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda “Investitsiya loyihalari ekspertizasi” fanidan amaliy mashg’ulot uchun tayyorlanish va bajarish tartibi belgilab berilgan.

Taqrizchilar:

U.R.Sangirova – TIMI, “Suv xo’jaligi iqtisodiyoti” kafedrasida dotsenti,
i.f.n.

D.Xo’jamqulov – TMI, “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

Uslubiy qo’llanma Toshkent moliya instituti “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrasida (2017 yil 5 maydagi 33-sonli) majlisida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun institut o’quv-uslubiy Kengashiga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

L.Zoyirov

Uslubiy qo’llanma institut o’quv-uslubiy Kengashining 2017 yil _____dagi _____-sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Kengash raisi

I.Qo’ziyev

KIRISH

Mustaqillik yillari davomida mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, zamon talabiga mos malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim sohasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Magistratura to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorlarining qabul qilinishi muhim o'rin tutadi.

Mazkur hujjatlarda uzluksiz ta'lim tizimining uzviyligini takomillashtirish, yuqori malakali, yuksak kasbiy, ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini yaratish ko'zda tutilgan.

Mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonini tashkil qilish muhim o'rin tutadi. Ta'lim dasturini o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masalalari va muammolarini amaliy ko'nikmalarni shakllantirish orqali o'rganilishi lozim. Amaliy mashg'ulotalabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallaridan bir qismini mustaqil o'zlashtirilishidir.

Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilishda magistratura talabalarning amaliy mashg'ulot topshiriqlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibini belgilash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Magistratura talabasining amaliy mashg'ulot ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatdan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Amaliy mashg'ulotning asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Amaliy mashg'ulotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;

- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan maqsadli foydalanish, berilgan topshiriqning ratsional echimini belgilash;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash, topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish.

TALABALARNI AMALIY MASHG'ULOTDA ISHLASHGA QIZIQTIRISH OMILLARI

Talabalar tomonidan faol amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarilishi faqat jiddiy va barqaror qiziqishlar mavjud bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Bunday eng jiddiy omil - kelgusi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlikdir. Amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarishda talabalarni faollashtirishga imkon beruvchi ichki omillar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

1. Qilinayotgan ishning foydaliligi. Agar talaba o'z ish natijalarining ma'ruza jarayonida yoki amaliy mashg'ulotlarda, maqolalar tayyorlashda foydalanilishi mumkinligini bilsa, uning bajarayotgan ishiga bo'lgan munosabati keskin tarzda yaxshi tomonga o'zgaradi, hamda ish sifati ham ortadi. Shunga ko'ra, talabani ruhan shu ishga tayyorlash, bajariladigan ishning zarurati ko'rsatib berilishi kerak.

2. Talabaning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu nihoyatda xilma-xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari, uslubiy ishlar va hokazolar.

3. Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlarida ishtirok etish.

4. Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noan'anaviy imtihon shakllari). Bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi. Mana shu holatning o'zi talabada o'z ustida ishlashni, o'zini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Bunda hal qiluvchi rolni o'qituvchi ado etadi. U umuman talaba bilan emas, balki muayyan shaxs bilan ishlayotganini har doim diqqat markazida bo'lishi lozim. U o'z talabasining kuchli va ojiz tomonlarini yaxshi bilishi, individual qobiliyati va qiziqishlarini nazarda tutishi

maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchining vazifasi talabaning – bo'lajak yuqori malakali mutaxassisning yaxshi tomonlarini ko'rish va ko'paytirishdan iborat.

Amaliy mashg'ulotga ijobiy munosabatni shakllantirish va rivojlantirish uchun har bir bosqichda ishning aniq maqsadi va qo'yilgan vazifalari tushuntirilishi, talabalar tomonidan ana shu maqsad va vazifalarning anglanganligi nazorat qilinishi kerak. Bu ishlar keyinchalik talaba tomonidan vazifalarni mustaqil tarzda bajarish hamda maqsadlarni tanlash ko'nikma va malakalarining shakllanishiga asos bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarning teng yarmi, ya'ni bir juftlikning 50 %i masala va mashqlarni mustaqil bajarishga sarflanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Uni quyidagicha tashkillashtirish mumkin:

1. O'qituvchining kirish so'zi. (mashg'ulot maqsadi, asosiy masalalar)
2. Tezkor so'rov.
3. 1-2 masala yoki mashqni doska yonida bajarish.
4. Masala va topshiriqlarni mustaqil bajarish.
5. Topshiriqlarni bajarishdagi xato va kamchiliklar ustida ishlash. (joriy mashg'ulot oxirida yoki keyingi dars boshlanishida). Mashg'ulotlarni o'tkazishda mustaqil ishlar va topshiriqlarini katta banki bo'lishi maqsadga muvofiq. Ular murakkablik darajasiga ko'ra ajratilsa yanada yaxshi bo'ladi.

Mashg'ulotlarni o'tkazishda fanning xususiyatidan kelib chiqib quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Qiyinlik darajasiga ko'ra bir xil bo'lgan bir qator topshiriqlarni berish. Bunda muayyan vaqt oralig'ida eng ko'p mashq bajargan talaba yuqori baho oladi.
2. Qiyinlik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar beriladi. Bunda baho topshiriq turiga qarab belgilanadi.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etishning shakl va usullari nihoyatda ko'p. Bulardan qaysi birini tanlash va foydalanish muayyan fanga, o'qituvchining maqsad va vazifalariga, qolaversa uning tajriba va mahoratiga bog'liqdir.

“INVESTITSIYA LOYIHALARI EKSPERTIZASI” FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

“Investitsiya loyihalari ekspertizasi” fanining asosiy maqsadi

talabalarda investitsiya loyihalarining sifatli va puxta ishlab chiqilganligini ekspertizadan o'tkazishni tashkil etish, investitsiya loyihalarini turli yo'nalishlarda ekspertizalardan o'tkazish va ular ketma-ketligini va samaradorligini ta'minlash orqali loyihalarining ichidan eng optimalini tanlash yoki loyihani moliyalashtirishning eng samarali shart-sharoitlarini aniqlash orqali uni amalga oshirish bo'yicha asosli, ishonchli va to'g'ri qaror qabul qilish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – uni o'rganuvchilarga:

- fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini;
- investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning mohiyati, ahamiyati va zarurligini;
- investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishdagi axborotlar manbasini;
- investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy ekspertizasini;
- investitsiya loyihasi bo'yicha garov ta'minotining ekspertizasini;
- investitsiya loyihalarining texnik ekspertizasini;
- investitsiya loyihalarining tijorat tahlilini;
- investitsiya loyihalari qatnashchilarining institutsional tahlilini;
- investitsiya loyihalarining ijtimoiy va ekologik ekspertizasini;
- investitsiya loyihasi bo'yicha risklar va ularni baholashni;
- investitsiya loyihasi bo'yicha mulkni baholash va ko'chmas mulk bozorining tahlilini;
- investitsiya loyihasini amalga oshirishda inflyatsiya ta'sirini baholashni;
- investitsiya loyihasini tasdiqlash jarayonini o'rgatish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.

AMALIY MASHG'ULOTNI O'TISHDA QO'LLANILADIGAN YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING MAZMUN-MOHİYATI

“Investitsiya loyihalari ekspertizasi” fanining amaliy mashg'ulotlarida ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

insert jadvali: mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi. Oldindan olingan ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini

shakllantirishga imkon beradi.

klaster (klaster - tutam, bog'lash): ma'lumot xaritasini tuzish va vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

toifali jadval: Toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy). Ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi. Tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

kontseptual jadval: o'rganilayotgan xodisa tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

t-jadval: bita kontseptsiya (ma'lumot)ning jihati o'zaro solishtirish (ha/yuk, ha/qarshi). tanqidiy mushohada rivojlantiradi.

aqliy hujum: bu uslubda qo'yilgan savol, muammo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama kilinadi. u talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlarda faol qatnashishlarini topish va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

bahs: o'z fikrini ifoda etishni xoxlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama kilish, xaqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

muzokaralar: eshitish aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvi.

pinbord texnikasi: muammoni xal etish buyicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

6-6 texnikasi: qo'yilgan muammoni xal etish buyicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi xarakteristikalar algoritmgaga muvofiq ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

delfi texnikasi: muammoni xal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

keys stadi.: talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil kilib, uni echishni o'rganish metodi.

**“INVESTITSIYA LOYIHALARI EKSPERTIZASI”
FANINING
HAR BIR MAVZUSI BO’YICHA AMALIY MASHG’ULOT
TOPSHIRIQLARI**

**1-mavzu. “Investitsiya loyihalari ekspertizasi” fanining predmeti,
maqsadi va vazifalari**

Topshiriqlar

1. Berilgan sxemani fanning strukturasi va boshqa fanlar bilan aloqasini ko’rsatib, to’ldiring.

<i>Fanning maqsadi:</i>	<i>Fanning vazifalari:</i>	<i>Fanning predmeti:</i>
<i>Fanning strukturasi</i>		
<i>Fanning boshqa fanlar bilan bog’liqligi:</i>		

2. «Aqliy hujum» metodining asosiy qoidalari bilan tanishgan holda, ish o'yinini tashkil qiling.

«Aqliy hujum» metodining asosiy qoidalari:

- Olg'a surilgan fikr va g'oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;
- Taklif qilinayotgan fikr va g'oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo'lsa ham, uni baholashdan o'zingizni tiying!
- Tanqid qilmang – hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir.
- Fikr bildirilayotganda bo'lma!
- Maqsad – fikr va g'oyalar sonini ko'paytirish.
- Qanchalik ko'p fikr va g'oyalar bildirilsa shunchalik yaxshi. Yangi va bebahodir fikr va g'oyaning paydo bo'lish ehtimoli paydo bo'ladi.
- Agar fikrlar qaytarilsa asabiylashmang va hayron bo'lmang.
- Xayollar «tuzg'ishiga» ijozat bering.
- Bu muammo faqatgina ma'lum usullar yordamidagina hal bo'lishi mumkin, deb o'ylamang.
- Fikrlar «hujumi»ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga qat'iyan rioya qilinishi shart.

3. Quyidagi ekspert varaqlaridan foydalangan holda, undagi savollarga javob toping.

Ekspert varag'i №1

“Investitsiya loyihalari ekspertizasi” fanining mohiyati va predmeti

1. Investitsiya loyihalari ekspertizasi tushunchasi.
2. “Investitsiya loyihalari ekspertizasi” fanining predmeti.
3. “Investitsiya loyihalari ekspertizasi” fanining maqsadi va vazifalari

Ekspert varag'i №2

“Investitsiya loyihalari ekspertizasi” fanining tarkibiy tuzilishi

1. Investitsiya loyihalari ekspertizasini tashkil etishning nazariy asoslari
2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning usullari va shakllari
3. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash.

Ekspert varag'i №3

“Investitsiya loyihalari ekspertizasi” fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

1. Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi.
2. “Menejment va marketing asoslari”, “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanlari bilan aloqasi.
3. “Korporativ moliya va investitsiya siyosati”, “Qurilish iqtisodiyoti”, “Investitsiya loyihalarini boshqarish”, “Loyihaviy moliyalashtirish” fanlari bilan aloqasi.


4. Quyidagi berilgan tushunchalarning izohini keltiring

<i>Tushunchalar</i>	<i>Izoh</i>
Investitsiyalar	
Asosiy kapital	
Ijtimoiy investitsiyalar	
Nou-xau	
Biznes	
Innovatsion investitsiyalar	
Investitsiya loyihasi	

2-mavzu. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning mohiyati, ahamiyati va zarurligi

Topshiriqlar

1. Quyidagi chizmani o'rganing va aniq misol doirasida loyihani ishlab chiqish bosqichlarini izohlang.



2. Quyidagi nazorat savollariga javob toping.

1. Investitsiya loyihalari ekspertizasi deganda nimani tushunasiz?
2. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishdan maqsad nima?
3. Loyihaviy moliyalashtirishda kreditor asosan nimalarga e'tibor beradi?
4. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning yuzaga kelish sabablari?
5. Jahon amaliyotida investitsiya oldi fazasining qanday bosqichlari mavjud?
6. "Investitsiya loyihalari ekspertizasi" fanining maqsadi nimadan iborat?
7. "Investitsiya loyihalari ekspertizasi" fanining asosiy vazifalarini bayon eting?
8. "Investitsiya loyihalari ekspertizasi" fani qanday iqtisodiy fanlar bilan bog'liq?
9. Investitsiya loyihalarini ekspertizasi deganda nimani tushunasiz?
10. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishdan maqsad nima?

3. Quyidagi jadvalda investitsiya loyihasining hayotiylik tsiklining birinchi bosqichi, ya'ni "Investitsiya oldi fazasi" keltirilgan. ushbu jadvalni investitsiya oldi fazasida bajariladigan ishlar ketma ketligidan kelib chiqqan xolda to'ldiring

Investitsiya oldi fazasi		
1	2	3
Loyihani amalga oshirish imkoniyatlarining tahlili		Loyihani baholash va investitsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish
	Loyihani mavjud muqobillar bilan solishtirgandagi dastlabki asoslash.	
		Investitsiyalashning salohiyatli manbalarini aniqlash.
Loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini makro va mikroiqtisodiy darajada tahlil qilish		
	Loyihani amalga oshirishga kelishish va tasdiqlash (ishchi hujjatlar)	

4. Investitsiya faoliyati ob'ektlarini moliyaviy hamda real investitsiya ob'ektlariga ko'ra turkumlang

Investitsiya faoliyati ob'ektlarini turkumlash	
Moliyaviy investitsiyalar ob'ektlari	Real investitsiyalar ob'ektlari
	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yangidan yaratiladigan va modernizatsiyalashtiriladigan asosiy fondlar va aylanma vositalari
Davlat va boshqa aksioner-banklariga qo'yiladigan maqsadli jamg'armalar	
Turli shakldagi mulkchilikka ega bo'lish huquqlari	Er, tabiiy resurslar va boshqa mulkchilik ob'ektlariga ega bo'lish va foydalanish huquqlari

5. “T – sxema” texnikasini o’rgangan holda, investitsiya loyihalari ekspertizasi tushunchasi doirasida qo’llang.

“T – sxema” texnikasi

- bu texnologiya murakkab, ko’ptarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o’rganishga qaratilgan; bunda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, bir g’oyaning ikki tomoni, foyda va zararlari;

- tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlash muvaffaqiyatli rivojlantirishiga hamda o’z g’oyalari, fikrlarini yozma va og’zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkon yaratadi;

- ma’ruza yakunida qo’llaniladi.

T-sxema qonun-qoidalar bilan tanishib chiqadi. Yakka tarkibda yoki juft-juft bo’lib T-sxemani to’ldiradi

O’z g’oyalarini yozma ravishda o’ng va chap taraflarida yozib chiqadilar. G’oyalar qarama-qarshi bo’lishi mumkin.

Sxemadagi g’oyalar taqqoslanishi va yakka tartibda, juft-juft holda yoki kichik guruhlarda to’ldirilishi mumkin.

Har bir tinglovchi o’z fikrini erkin holda to’liq bayon etishi mumkin.

Investitsiya loyihalari ekspertizasi tushunchasi

To’g’risi	Noto’g’risi
1.	1.
2.	2.
3.	3.

6. Blits so’rov uchun savollar

1. Investitsiya loyihalari ekspertizasi deganda nimani tushunasiz?
2. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishdan maqsad nima?
3. Loyihaviy moliyalashtirishda kreditor asosan nimalarga e’tibor beradi?
4. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning yuzaga kelish cabablari?
5. Jahon amaliyotida investitsiya oldi fazasining qanday bosqichlari mavjud?

7. Test topshiriqlari

1. Investitsiya loyihalarining ekspertizasi - bu:

- a. Loyiha bo'yicha turli vaqtdagi pul oqimlarini yagona vaqt birligiga keltirish
- b. Import o'rmini bosuvchi yoki eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish
- c. Loyiha bo'yicha qarorlarni tayyorlash va asoslashda foydalaniladigan metodologik vositalar tizimi
- d. Kredit qo'mitasiga taqdim etish uchun barcha loyiha-smeta hujjatlarini safarbar etish

2. Loyiha hayotiylik tsiklining investitsiya loyihasining bank xodimlari tomonidan ekspertiza qilinishini o'z ichiga oluvchi fazasi qanday nomlanadi?

- a. Investitsiya oldi fazasi
- b. Baholash fazasi
- c. Investitsiyalash fazasi
- d. Boshlang'ich fazasi

3. Investitsiya loyihasining ekspertizasini amalga oshiruvchi ekspert-analitikka qo'yilgan qaysi talablar majburiy emas?

- a. Yuqori vakolatlilik va malakalilik
- b. Ob'ektivlik, qat'iyatlilik, o'z fikrida tura bilish va o'zgalar fikrini hurmat qilish qobiliyati
- c. Bir qator xorijiy tillarda erkin so'zlay bilishi
- d. Kompyuterdan foydalana bilishi

4. Tahlilning qaysi turi investitsiya loyihasini makrodarajada o'rganadi va uning butun bir jamiyat uchun samaradorligini tadqiq qiladi?

- a. Iqtisodiy
- b. Moliyaviy
- c. Ijtimoiy
- d. Institutsional

5. Tahlil so'zining lug'aviy mazmuni nimani anglatadi?

- a. "Tahlil" lotincha so'zdan olingan bo'lib, "butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman" ma'nosini anglatadi
- b. "Tahlil" frantsuzcha so'zdan olingan bo'lib, "butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman" ma'nosini anglatadi
- c. "Tahlil" grekcha so'zdan olingan bo'lib, "butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman" ma'nosini anglatadi
- d. "Tahlil" inglizcha so'zdan olinib, "butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman" ma'nosini anglatadi

8. Quyidagi berilgan tushunchalarning izohini keltiring

Tushuncha	Izoh
Muqobil loyihalar	
Real investitsiyalar	
Moliyaviy investitsiyalar	
Biznes reja	
Ustav kapital	
Kon'yunktura	
Investitsiya loyihasi	
Investitsiya loyihasining hayotiylik davri	

3-mavzu. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishdagi axborotlar manbasi

Topshiriqlar

1. Quyida keltirilgan ma'lumotlarni o'rganing va fikringizni bildiring.

Texnik-iqtisodiy asosnoma - bu loyihaning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini ko'rishga imkon beruvchi boshlang'ich ma'lumotlar, shuningdek asosiy texnik va tashkiliy qarorlar, hisob-smeta, baholash va boshqa ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtiruvchi hisob-analitik hujjatlar to'plamidir.

Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslashning asosiy maqsadi investitsiya loyihalarining milliy valyutadagi kabi xorijiy valyutada ham qoplanishini aniqlash hisoblanadi.

2. Muhokama uchun savollar

1. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish uchun qarz oluvchilar tomonidan bankka qanday hujjatlar taqdim etiladi?

2. Bankka taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligi qanday tekshiriladi?

3. Investitsiya loyihalarini baholashdagi asosiy moliyaviy koeffitsientlar?

4. Korxonaning moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili deganda nimani tushunasiz?

5. Investitsiya loyihalarini ekspertizasida moliyaviy tahlilning asosiy yo'nalishlarini izohlab beringchi?

6. Investitsiya loyihalarini ekspertizasida rentabellik ko'rsatkichlari tahlili deganda nimani tushunasiz?

7. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishda dasturiy ta'minotlar deganda nimani tushunasiz?

8. Investitsiya loyihalarini ekspertizasida moliyaviy tahlilning asosiy yo'nalishlarini izohlab bering?


9. Investitsion tahlilni tashkil etishning shart-sharoitlari qanaqa?

10. Investitsiya loyihalarida texnik tahlil deganda nimani tushunasiz?

11. Korxonaning moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlilini izohlab bering?

3. Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishning YUNIDO uslubiyoti qanday bo'limlardan iborat?

Quyidagi chizmani to'ldiring.



4. Texnik-iqtisodiy asosnomaning tarkibiy qismlarini to'ldiring

	Texnik-iqtisodiy asoslar quyidagi murakkab tartib va mazmunda, lekin tushunarli, o'zaro bog'liqda bo'lishi lozim:
→	Kirish.
→	
→	Loyihaning afzalliklari va foydaliligi.
→	
→	
→	Loyihaning moliyalashtirish rejasi.
→	
→	
→	Loyiha bo'yicha mulk va uskunalarni sug'urtalash.
→	
→	Loyiha bo'yicha qonun va qoidalar.
→	
→	
→	Loyiha bo'yicha kafolatlar.
→	
→	Loyiha bo'yicha xarajatlar.
→	Loyiha bo'yicha kredit to'lovlari va foizlarning yillar bo'yicha hisob-kitobi.
→	Loyiha bo'yicha joriy aktivlar va passivlarning, aylanma kapital (ishchi kapitali)ning hisob-kitobi.
→	Loyiha bo'yicha pul oqimi hisob-kitobi.

5. Stol atrofida” muloqat-mashg’uloti o’tish qoidasi

Fikrlarni bildiruvchi talabalarni diqqat bilan bo’lmasdan eshitish.

Ma’qullanmagan fikrlarga, ruxsat so’rab fikr bildirish.

Ma’qul kelgan fikrlarga, qo’shimcha fikrlarga to’ldirishlar kiritish.

“Stol atrofida” muloqat mashg’uloti uchun savollar

1. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishdagi axborotlar manbasini izohlab bering?


2. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish uchun qarz oluvchilar tomonidan bankka taqdim etiladigan hujjatlarni sanang.

3. Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslashning asosiy maqsadi nima?


4. Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslashni bajarishda qarz oluvchi loyihani amalga oshirishda qaysi hujjatlar to’plamini tayyorlashi lozim?

5. Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslashning taxminiy tarkibiy tuzilishi qanday?

6. Quyidagi chizmani to’ldiriring



7. Investitsiya loyihalari ob'ektlari qanday turlarga ajratish mumkin?



8. Aqliy hujum uchun savollar

- Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish uchun qarz oluvchilar tomonidan bankka qanday hujjatlar taqdim etiladi?
- Bankka taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligi qanday tekshiriladi?
- Investitsiya loyihalarini baholashdagi asosiy moliyaviy koeffitsientlar?
- Korxonaning moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili deganda nimani tushunasiz?
- Investitsiya loyihalarini ekspertizasida moliyaviy tahlilning asosiy yo'nalishlarini izohlab beringchi?
- Investitsiya loyihalarini ekspertizasida rentabellik ko'rsatkichlari tahlili deganda nimani tushunasiz?
- Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishda dasturiy ta'minotlar deganda nimani tushunasiz?
- Investitsiya loyihalarini ekspertizasida moliyaviy tahlilning asosiy yo'nalishlarini izohlab bering?
- Investitsion tahlilni tashkil etishning shart-sharoitlari qanaqa?
- Investitsiya loyihalarida texnik tahlil deganda nimani tushunasiz?
- Korxonaning moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlilini izohlab bering.

4-mavzu. Investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy ekspertizasi

Topshiriqlar

1.T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Sof joriy qiymatni hisoblash usuli. Sof joriy bahoni aniqlash uslubi (NPV-Net Present Value) – sof joriy bahoni aniqlashga asoslangan investitsion loyihaning tahlili.

Investitsiion loyihalarining rentabelligini umumiy hisob usuli. Bu investitsiyaning rentabellik indeksini hisoblash usuli oldingi usullarning davomi hisoblanadi, u bir birlik investitsion mablag' hisobida korxona aktivlarining o'sish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Rentabellik indeksi (PI) ushbu formula bo'yicha hisoblanadi:

$$PI = [\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t}] / I_o$$

Investitsion loyihalarining rentabellik normasini hisoblash usuli. Investitsiyaning rentabellik normasi deganda (IRR) NPV=0 bo'lgan loyihaning diskontlash koeffitsienti tushuniladi.

Investitsiyaning ichki foydalilik me'yori (IRR - Internal Rate of Return) – yo'naltirilgan investitsion mablag'larning qoplanish darajasini ko'rsatib beradi.

Ana'naviy uslublar. Ana'naviy uslublar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) investitsiyalarning qoplanishi davri (PP)ni hisoblash uslubi;
- b) investitsiyalarning buxgalterlik rentabelligi (ROI)ni aniqlash uslubi.

Investitsiyalarning qoplanish davri (PP) (Rayback Reriod)ni hisoblash uslubi orqali investitsion loyihani amalga oshirishda zarur boshlang'ich investitsion mablag'larni koplash uchun koplash uchun kerak bo'ladigan muddati aniqlanadi.


$$PP = \frac{I_o}{CF_t(\Sigma)}$$

Investitsiyalarning buxgalterlik rentabelligi (ROI - Return on Investment)ni aniqlash uslubi investitsion loyihaning buxgalterlik foyda asosida baholashdan iborat. Bunda ROI soliq to'lashdan oldingi foyda

EBIT (earnings before interest and tax) yordamida hisoblanadi. Bu ko'rsatkich quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$ROI = \frac{EBIT}{(C_a^H - C_a^K) : 2}$$

2. Quyidagi chizmani to'ldiring va izohlang.




3. Investitsiya loyihalarini baholashning moliyaviy va iqtisodiy ekspertizasi qanday omillarni hisobga oladi:

Moliyaviy ekspertiza	Iqtisodiy ekspertiza
- loyihaning rentabelligi; - -	- loyiha qatnashchilari uchun davlat ragbatlantirishini o'z ichiga olishni. - -

4. Muhokama uchun savollar

1. Investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy ekspertizasi mazmun-mohiyatini tushuntirib bering?
2. Investitsiya loyihalarini baholash usullarini sanab o'ring?
3. Investitsiya loyihalarini iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishning o'ziga xos belgilarini bilasizmi?
4. Investitsiya loyihalarini baholashdagi asosiy moliyaviy koeffitsientlarni izohlab bering?
5. Investitsiya loyihalarini baholash usullarini sanab o'ring?
6. Investitsiya loyihalarini iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishning o'ziga xos belgilarini ifodalang?
7. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish uchun qarz oluvchilar tomonidan bankka qanday hujjatlar taqdim etiladi?
8. Bankka taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligi qanday tekshiriladi?
9. Investitsiya loyihalarini baholashdagi asosiy moliyaviy koeffitsientlarga izoh bering?
10. Korxonaning moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili deganda nimani tushunasiz?
11. Investitsiya loyihalarini ekspertizasida moliyaviy tahlilning asosiy yo'nalishlarini izohlab bering?
12. Investitsiya loyihalarini ekspertizasida rentabellik ko'rsatkichlari tahlili nimani anglatadi?

5. Jahon tajribasida investitsion tahlilning uch asosiy bosqichi mavjud. Ularni aniqlang va har biriga doir bo'lgan xususiyatlarini izohlab bering



6. Investitsiya loyihalarini iqtisodiy samaradorligini baholashning diskontlashga asoslangan usullarini aniqlang va har birini izohini keltiring

Diskontlashtirish uslubi. Diskontlashtirish kontseptsiyasini qo'llashga asoslangan uslub quyidagilarni o'z ichiga oladi:	→	
	→	
	→	
	→	

7. Test savollari.

1. Boshlang'ich investitsiya harajatlarning tarkibi qanday?

- a. Asosiy kapital va sof aylanma kapital summasi
- b. Asosiy kapital va aylanma kapital summasi
- c. Sof aylanma kapital summasi
- d. Aylanma kapital va ishlab chiqarish oldi harajatlari

2. Sotish rentabelligi koeffitsienti qanday aniqlanadi?

- a. Soliqdan keyingi foyda / sotish hajmi
- b. Operatsion xarajatlar / sotuv hajmi
- c. Sotish hajmi / operatsion xarajatlar
- d. Operatsion xarajatlar – sof sotish hajmi

3. Pul oqimi deganda nimani tushunasiz?

- a. Pul mablag'larining muayyan davr oralig'idagi harakatini
- b. Pul mablag'lari kirimini
- c. Pul mablag'lari chiqimini
- d. Pul va pul mablag'larining kirimi va chiqimi farqini

4. Pul oqimi to'g'risidagi hisobot qaysi usulda tuziladi?

- a. To'g'ri va egri usulda
- b. Balans usulida
- c. To'g'ri usulda

d. To'g'ri va balans usulida

5. Investitsion tahlilda foiz stavkalarining qanday turlari ishlatiladi?

- a. Oddiy va murakkab
- b. Dastlabki va yakuniy
- c. Tijorat va qat'iy belgilangan (o'zgarmas)
- d. Faqat murakkab

6. diskontlashga asoslangan baholash usullari

- a. PP, ROI, NPV
- b. NPV, IRR, PI
- c. ARR, NPV, DPP
- d. PP, ROI, ARR

7. IRR

- a. sof joriy qiymatni aniqlash usuli
- b. foydaning ichki me'yorini hisoblash usuli
- c. investitsiyalarning rentabelligini hisoblash usuli
- d. diskontlashning qoplash muddatini hisoblash usuli

8. sof joriy qiymat ijobiy miqdorga ega bo'lsa

- a. $NPV > 0$
- b. $NPV = 0$
- c. $NPV < 0$
- d. To'g'ri javob yo'q

9. Oddiy (yoki statistik) baholash usullari

- a. NPV, PI, DPP
- b. ARR, DPP, PI
- c. NPV, DPP, IRR
- d. PP, ARR, ROI

10. PI bu

- a. sof joriy qiymatni aniqlash usuli
- b. foydaning ichki me'yorini hisoblash usuli
- c. investitsiyalarning rentabelligini hisoblash usuli
- d. diskontlashning qoplash muddatini hisoblash usuli

11. $NPV = 0$ da investitsiyalarning rentabelligi qanday bo'ladi bo'ladi

- a. $PI > 1$
- b. $PI = 1$
- c. $PI < 1$
- d. $PI = 0$

12. NPV bu

- a. investitsiyalarning rentabelligini hisoblash usuli
- b. sof joriy qiymatni aniqlash usuli
- c. foydaning ichki me'yorini hisoblash usuli
- d. investitsiya samaradorligi koeffitsienti

13. investitsiyalarning rentabelligi 1 ga teng bo'lganda

- a. $NPV > 0$
- b. $NPV = 0$
- c. $NPV < 0$
- d. $NPV > 1$

14. diskontlashga asoslanmagan baholash usullari

- a. NPV, PI, DPP
- b. PP, ARR, ROI
- c. ARR, DPP, PI
- d. NPV, DPP, IRR

15. DPP nimani anglatadi

- a. sof joriy qiymatni aniqlash usuli
- b. foydaning ichki me'yorini hisoblash usuli
- c. investitsiyalarning rentabelligini hisoblash usuli
- d. diskontlashning qoplash muddatini hisoblash usuli

8. Masala.

1. Quyidagi ma'lumotlar asosida investitsiya loyihasining samaradorligini baholang va tegishli xulosalarni shakllantiring.

I_0	CF_1	CF_2	CF_3	CF_4	d (yillik)	PP	ROI	NPV	PI	IRR	DPP
90 000	26 000	35 000	35 000	41 000	10%						

2. Quyidagi ma'lumotlar asosida investitsiya loyihasining samaradorligini baholang va tegishli xulosalarni shakllantiring.

I_0	CF_1	CF_2	CF_3	CF_4	d (yillik)	PP	ROI	NPV	PI	IRR	DPP
105 000	37 000	53 000	53 000	90 000	14%						

3. Quyidagi ma'lumotlar asosida investitsiya loyihasining samaradorligini baholang va tegishli xulosalarni shakllantiring.

I_0	CF_1	CF_2	CF_3	CF_4	d (yillik)	PP	ROI	NPV	PI	IRR	DPP

110 000	40 000	50 000	50 000	65 000	15%						
---------	--------	--------	--------	--------	-----	--	--	--	--	--	--

4.Quyidagi ma'lumotlar asosida investitsiya loyihasining samaradorligini baholang va tegishli xulosalarni shakllantiring.

I_0	CF_1	CF_2	CF_3	CF_4	d (yillik)	PP	ROI	NPV	PI	IRR	DPP
108 000	39 000	49 000	49 000	70 000	12%						

5.Quyidagi ma'lumotlar asosida investitsiya loyihasining samaradorligini baholang va tegishli xulosalarni shakllantiring.

I_0	CF_1	CF_2	CF_3	CF_4	d (yillik)	PP	ROI	NPV	PI	IRR	DPP
106 000	38 000	48 000	48 000	55 000	14%						

6.Quyidagi ma'lumotlar asosida investitsiya loyihasining samaradorligini baholang va tegishli xulosalarni shakllantiring.

I_0	CF_1	CF_2	CF_3	CF_4	d (yillik)	PP	ROI	NPV	PI	IRR	DPP
106 000	38 000	54 000	54 000	80 000	13%						

7.Quyidagi ma'lumotlar asosida investitsiya loyihasining samaradorligini baholang va tegishli xulosalarni shakllantiring.

I_0	CF_1	CF_2	CF_3	CF_4	d (yillik)	PP	ROI	NPV	PI	IRR	DPP
104 000	36 000	52 000	52 000	75 000	12%						

8.Quyidagi ma'lumotlar asosida investitsiya loyihasining samaradorligini baholang va tegishli xulosalarni shakllantiring.

I_0	CF_1	CF_2	CF_3	CF_4	d (yillik)	PP	ROI	NPV	PI	IRR	DPP
102 000	35 000	51 000	51 000	70 000	14%						

9.Quyidagi ma'lumotlar asosida investitsiya loyihasining samaradorligini baholang va tegishli xulosalarni shakllantiring.

I_0	CF_1	CF_2	CF_3	CF_4	d (yillik)	PP	ROI	NPV	PI	IRR	DPP
104 000	37 000	47 000	47 000	50 000	12%						

10. Quyidagi ma'lumotlar asosida investitsiya loyihasining samaradorligini baholang va tegishli xulosalarni shakllantiring.

I_0	CF_1	CF_2	CF_3	CF_4	d (yillik)	PP	ROI	NPV	PI	IRR	DPP
185 000	80 000	80 000	98 000	98 000	13%						

9. Quyidagi jadvalda keltirilgan asosiy tushunchalarning izohini keltiring

Tushuncha	Izoh
Kredit	
Moliyalashtirishning jalb qilingan manbalari	
Moliyalashtirishning qarz manbalari.	
Investitsiya loyihalarini iqtisodiy samaradorligini baholash	
Investitsiya loyihalarini moliyaviy samaradorligini baholash	
Diskontlash	
Diskontlashga asoslangan usullar	
Foyda	
Diskontlashga asoslanmagan usullar	
NPV	
IRR	
PI	
DPP	
PP	
ROI	

5-mavzu. Investitsiya loyihasi bo'yicha garov ta'minotining ekspertizasi

Topshiriqlar

1. Quyida garov ta'minotiga tegishli ma'lumotlar keltirildi. Ularni o'rganing hamda shu mavzuga doir kamida 10ta tayanch iborani izohi bilan keltiring.

Garov ta'minoti - kredit summasining 120 foizidan kam bo'lmagan miqdorda, hukumat va uchinchi shaxslar kafolatlari, sug'urta polislari, asosiy vositalar, bino va inshootlar (baholangan qiymatining 70 foizigacha miqdorida), asbob-uskunalar (baholangan qiymatining 60-70 foizi miqdorida) bo'lishi lozim.

Garovga qo'yilgan mol-mulk garovga qo'yuvchidan garovga oluvchi ixtiyoriga beriladigan garov - zakalat deb e'tirof etiladi. Garov narsasi ko'chmas mulkdan iborat bo'lgan garov ipoteka deb e'tirof etiladi. Ipoteka belgilangan mol-mulk garovga oluvchiga berib qo'yilmaydi.

Varrant - garov uchun xizmat qiluvchi hujjat.

Kafolat ta'minoti - kredit summasining 120 foizidan kam bo'lmagan miqdorda (hukumat va uchinchi shaxslar kafolatlari, sug'urta polislari, asosiy vositalar, binolar, inshootlar (baholangan qiymatining 70 foizigacha miqdorida), asbob-uskunalar (baholangan qiymatining 60-70 foizi miqdorida). Kredit uchun foiz to'lovlari Libor foiz stavkasiga asoslangan foiz+O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki marjasi asosida, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki marjasi to'lovlari subloyihalarning baholanishi (kreditlash davri, tavakkalchilik darajasi)ga qarab 2 foizdan 5 foizgacha bo'lishi mumkin. Shuningdek, bir martalik komissiya to'lovlari kredit summasining 1,5 foizi miqdorida belgilanadi.

Jahon amaliyotida garov ta'minotini baholashda mulkning bozor narxi quyidagi yo'llar bilan belgilanishi lozim:

- a) maxsus bo'linga muvofiq ravishda baholash;
- b) agar ko'chmas mulk uning ta'minoti uchun qabul qilingan aktivning to'liq qiymati Markaziy bank tomonidan belgilangan ustav kapitalining eng past miqdorining 5 foiziga teng yoki undan kam bo'lsa, u holda ko'chmas mulk bankning malakali xodimi yoki bank Boshqaruvi yoxud Kengashi rahbarlari yoki a'zolaridan biri tomonidan baholanishi mumkin.

Bunda bank tomonidan baholovchi shaxsning mustaqilligini ta'minlash uchun tegishli choralar ko'rilishi zarur. Bunday chora sifatida baholovchi shaxslar uchun ular tomonidan baholangan mulk bilan bog'liq bo'lgan har qanday operatsiyalarda ishtirok etish yoki unga kiritilishini taqiqlash qo'llanishi mumkin.

Agar bank tomonidan baholangan mulkning boshqa ko'chmas mulklar toifasiga o'tkazilishiga qadar olti oy muddat ichida mazkur bo'limning (b) bandi talablariga muvofiq mulk tegishli ravishda baholangan bo'lsa, u holda mulkni boshqa ko'chmas mulklar toifasiga o'tkazishda qayta baholash talab qilinmaydi.

Ko'chmas mulk boshqa ko'chmas mulklar toifasiga o'tkazilganidan keyin bank ushbu mulkni har yili qayta baholashi zarur. Bank o'z mulkning qiymati o'zgarishini kuzatish imkonini beruvchi zarur tadbirlarni ishlab chiqishi zarur.

Baholash bank bilan to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita aloqador bo'lmagan baholovchi tomonidan amalga oshirilsa, ushbu shaxs bevosita bank yohud uning agenti tomonidan yollanishi va baholanayotgan mulkdan to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita moliyaviy yoxud boshqa jihatdan manfaatdor bo'lmasligi lozim.

2. T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy shartlaridan biri bu garov ta'minoti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda yangi tahrirdagi (Mazkur Qonunning yangi taxriri O'zR 01.05.1998 y. 614-1-son Qonuniga muvofiq kiritilgan, Qonunga O'zR 07.12.2001 y. 320-II-son Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan) "Garov to'g'risida"gi Qonuni 32 moddadan iborat bo'lib, loyihalarni moliyalashtirishda garov ta'minotining tartib qoidalarini belgilab beradi.

"Garov to'g'risida"gi Qonunning 1 moddasiga ko'ra "bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan xuquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi" garov hisoblanadi. Garovga ko'ra qarzdor (garovga qo'yuvchi) garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha garovga qo'yuvchi tomonidan garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan boshqa kreditorlarga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirilishiga xaqli bo'ladi, qonunda belgilab qo'yilgan xollar bundan mustasno.

Qonun bo'yicha xaqiqiy bo'lgan xar qanday majburiyatning: zayom, bank krediti, ijara, oldi-sotdi, yuklarni tashish va xuquqning xar qanday sub'ektlari (jismoniy va yuridik shaxslar, davlat) o'rtasidagi boshqa majburiyatlarning bajarilishi garov bilan ta'minlanishi mumkin. Majburiyat pul birliklarida (milliy valyutada yoki chet el valyutasida) ifodalangan bo'lishi lozim.

Garov shartnoma yoki qonunlarga ko'ra vujudga keladi. Garovning vujudga kelishini nazarda tutuvchi qonunda qanday majburiyatga ko'ra va aynan qaysi mol-mulk garovda to'rgan deb e'tirof etilishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Garov zakalat, ipoteka, shuningdek xuquq garovi tarzida amal qilishi mumkin.

Xar qanday mol-mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy xuquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar, xususan xayoti yoki sog'lig'iga etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno.

Garov to'g'risidagi shartnomada, qonun asosida vujudga keladigan garovga nisbatan esa qonunda garovga qo'yuvchi kelgusida qo'lga kiritadigan ashyolar va mulkiy xuquqlar garovi nazarda tutilishi mumkin. Agar shartnomada yoki qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mol-mulkka nisbatan garov xuquqi mol-mulkning narsalarini va tarkibiy samarasini ham o'z ichiga oladi. Garovga qo'yilgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan samara, mahsulot va daromadlarga nisbatan garov xuquqi shartnomada nazarda tutilgan xollarda tatbiq etiladi.

Garov narsasi ko'chmas mulkdan iborat bo'lgan garov ipoteka deb e'tirof etiladi. Ipoteka belgilangan mol-mulk garovga oluvchiga berib qo'yilmaydi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar amaliyotida yuqori likvidlik darajasiga ega bo'lgan garov ob'ektlari birinchi toifali garov ob'ektlari deb qaraladi va ularga quyidagilar kiradi: er, hukumatning qimmatli qog'ozlari, markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar, korxonalarining hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlari.

3. “Stol atrofida” muhokama uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»ga Qonuni qachon qabul qilingan?
2. O'zbekiston Respublikasining “Garov to'g'risida”ga Qonunining mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalarini tushuntirib bering?
3. Garov ta'minotining turlarini tavsiflang?
4. Investitsiya loyihalari bo'yicha garov ta'minotining jahon amaliyoti bo'yicha nimalarni bilasiz?
5. Qimmatli qog'ozlar - kredit ta'minotining asosiy turi sifatidaligini izohlab bering?
6. Bank marjasini aniqlashda garov ta'minotining hisobi qanday amalga oshiriladi?
7. Kredit ta'minotining asosiy turlari va ularga izoh bering?
8. Ipotekani davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun qanday hujjatlar taqdim etilishi kerak?

4. Test savollari

1. “Garov to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan?

- a. 1992 yil 9 dekabr
- b. 1991 yil 10 dekabr
- c. 1993 yil 8 dekabr
- d. 1995 yil 11 aprel

2. Kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilinadigan mulk qanday bo'lishi kerak?

- a. Tez sotiladigan, oldin biror majburiyat bo'yicha garovga qo'yilmagan, korxonaga tegishli bo'lgan mulk bo'lishi kerak
- b. Tez sotilmaydigan, korxonaga tegishli bo'lgan mulk bo'lishi kerak
- c. Tez sotiladigan, majburiyat bo'yicha garovga qo'yilmagan, korxonaga tegishli bo'lmagan mulk bo'lishi kerak
- d. Kreditning hajmidan besh barobarga ko'p bo'lishi lozim

3. Ipoteka deganda nimani tushunasiz?

- a. Garov narsasi ko'chmas mulkdan iborat bo'lgan garov ipoteka deb aytiladi
- b. Garov narsasi ko'char mulkdan iborat bo'lgan garov ipoteka deb e'tirof etiladi
- c. Naqdsiz pul ko'rinishidagi kredit
- d. Uzoq muddatli aktivlarga beriladigan kredit

4. Nimalar garov bo'lishi mumkin?

- a. Har qanday mol-mulk, shu jumladan, ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin
- b. Faqat mol-mulk garov narsasi bo'lishi mumkin
- c. Faqat qimmatli qog'ozlar garov bo'la oladi
- d. Ko'char va ko'chmas mulklar

5. Qonunchilikka ko'ra garov deganda nimani tushunasiz?

- a. Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi
- b. Bir shaxsning uchinchi shaxsga mol-mulkini majburiyatni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi
- c. Bir shaxsning ikkinchi shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni berishi garov hisoblanadi
- d. Qarz oluvchining qarz majburiyatini ta'minlash bo'yicha mol-mulkini berishi garov hisoblanadi

6. Bank marjasini aniqlashda eng risksiz garov ta'minoti turi:

- a. Davlat kafolati
- b. Uchinchi shaxslar kafilligi
- c. Sug'urta polisi
- d. Ko'chmas mulk

7. Bank marjasini aniqlashda eng yuqori riskli garov ta'minoti turi:

- a. Korxonalarning qimmatli qog'ozlari
- b. Ko'chmas mulk
- c. Sug'urta polisi
- d. Uchinchi shaxslar kafilligi

8. Bank kreditlari uchun likvidlilik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan garov ob'ekti ko'rsating.

- a. hukumatning qimmatli qog'ozlari
- b. korporativ qimmatli qog'ozlar
- c. banklarning obligatsiyalari
- d. Er

9. Garovga beruvchi nafaqat egalik qiladigan, balki xarajat ham qila oladigan garov ob'ekti – bu:

- a. oborotdagi va qayta ishlash jarayonidagi tovarlar garovi
- b. oborotdagi tovarlar garovi
- c. qattiq garov
- d. mijoz mulkining garovi

10. Mulkni tasarruf etish deganda nimani tushunasiz?

- a. Mol-mulk taqdirining mustaqil hal qilinishi. U mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berish kabi hollar orqali ro'y beradi
- b. Mol-mulkka egalik qilish va unday foydalanish
- c. Mol-mulkka egalik qilish huquqi
- d. Mol-mulkka egalik qilish huquqini sotib olish va sotish

5. Quyidagi jadvalni to'ldiring

Tushuncha	Izoh
	ko'chmas mulkka (bino, inshoot) va uning ishlashi uchun zarur bo'lgan ishchi kapitalga (xom ashyo, zahiralar, pul mablag'lari va b.) yo'naltiriladigan investitsiyalar, shuningdek nomoddiy aktivlarga (litsenziya, patent, savdo markasi va b.) yo'naltiriladigan investitsiyalar.
Ustav kapital	
Kon'yunktura	
	subyektlarning investitsiyalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyatlari yig'indisi.
	investitsiyalarni amalga oshiradigan korxona, tashkilot va davlat.
Nomoddiy aktivlar	
Garov narsasi	
Qimmatli qog'oz	
	malaka talabidan o'tgan, ofertasi qabul qilingan tenderda raqobatlashuvchi shaxs
	bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan xuquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi

6-mavzu. Investitsiya loyihalarining texnik ekspertizasi

Topshiriqlar

1. Diskussiya qatnashchisiga eslatma bilan tanishning va diskussiya uchun ma'lumot tayyorlang.

Diskussiya qatnashchisiga eslatma

1. Diskussiya muammo echilish metodi hisoblanadi, lekin munosabatlarni aniqlash emas.

2. Boshqalarga imkoniyat berish uchun ko'p gapirma.
3. So'zlarni o'ylab, toroziga solib gapir, emotsiyani nazorat qilib, fikrlarni to'liq bayon qilishga imkon ber.
4. Muholifat (opponent) pozitsiyasini tushunishga harakat qil, unga hurmat bilan yondosh.
5. Aniq ifodalab, muholifat tomonidan aytilgan fikrga yomon munosabatda bo'lma.
6. Faqat diskussiya predmeti bo'yicha gapir, o'zingning umumiy aqlingni, o'qimishligingni ko'rsatgin.
7. Birovga yoqishga yoki o'zingning chiqishing bilan o'zingni ma'qullab o'zgalarga halaqit qilma.

Diskussiya qatnashuvchilarini baholash mezonlari

Baholash mezonlari	Dokladchi			
	1	2	3	4
1. Doklad tarkibi (1,0)				
- muhimligi;				
- ketma-ketligi, dokladning aniqligi va logikasi;				
- aniq xulosalar formulirovkasi;				
2. Ishlayotgan axborot yangiligi (0,5)				
3. Taqdim etilayotgan axborotning foydalanishi (0,4)				
Reglamentga rioya qilinishi (0,1)				
JAMI:				
	Retsenzentlar			
	1	2	3	4
1. Dokladga qo'shimchalar (0,5)				
2. Dokladni kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatish				
JAMI:				
	Diskussiya qatnashchilari			
	1	2	3	4
1. Savollar:				
- hajmi (0,1 har biriga);				
- mohiyati bo'yicha (0,3);				
2. Qo'shimcha (0,5)				
JAMI:				

2. Quyida keltirilayotgan nazorat va muhokama uchun savollarga javob toping.

1. Texnik tahlil qilishning mazmun-mohiyatini bilasizmi?

2. Investitsiya loyihalarini texnik tahlil qilishning asosiy vazifasi nima?
3. Investitsiya loyihasining texnik tahlili qaysilarning bajarilishini ta'minlashi lozim?
4. Texnologik riskni pasaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni sanang?
5. Funktsional sxemalar va chizmalar to'plami qaysi elementlarni o'z ichiga oladi?
6. Umumlashtirilgan mezonlar qaysi formula bo'yicha hisoblanadi?

3. Quyidagi test savollariga javob toping.

- 1. Loyihaning texnik infratuzilmasiga quyidagilarning qaysi biri kiradi?**
 - a. Kanalizatsiya, ventilyatsiya
 - b. Xom ashyo va materiallar
 - c. O'rash-qadoqlash va joylash
 - d. Er va er rentasi
- 2. Ishlab chiqarish jarayonining texnik shartlarga mos kelmasligi, ekologik xavfsizlik qoidalari va sanitar-gigienik me'yorlarning buzilishi, texnologik jarayonning nomuvofiq tarzda kechishi – bu ... ning belgilari**
 - a. Mahsulot sifatining buzilish riski
 - b. Moliyaviy risk
 - c. Valyuta riski
 - d. Xom ashyo riski
- 3. Etkazib berilgan uskunalarning to'liq emasligi, texnologiya liniyalaridan birining ishdan chiqishi, ishlab chiqarish quvvatining nazarda tutilgandan ko'ra pastligi va h.k. – bu ... belgilari**
 - a. Texnologik risk
 - b. Shartnoma shartlarini bajarmaslik
 - c. Siyosiy riski
 - d. Moliyaviy risk
- 4. Investitsiya loyihasini noto'liq yoki sifatsiz texnik ekspertiza qilishning natijasi quyidagicha bo'lishi mumkin:**
 - a. Samarasiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish
 - b. Kichik biznes sub'ektini tashkil etish
 - c. Xorijdan zamonaviy uskunalarni olib kirish
 - d. Yangi ish joylarini tashkil etish
- 5. Tahlilda foydalaniladigan ma'lumotlarning to'g'riligi qaysi usullar orqali tekshiriladi?**

- a. Texnik (yuzaki) tekshirish usuli, mantiqiy tekshirish usuli
- b. Oddiy-an'anaviy usullar, iqtisodiy-matematik usullar
- c. Mazmunan tekshirish usuli
- d. Texnik tekshirish usuli

6. Qaysi omillar firma faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim omillari bo'lib hisoblanadi?

- a. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish omillari
- b. Ichki va tashqi omillar
- c. Asosiy va qo'shimcha omillar
- d. Tabiiy va ekologik omillar

7. Xom ashyo (neft, gaz, ko'mir va h.k.) qazib olish yoki uni qayta ishlashga mo'ljallangan yangi zavod (majmua) qurilishini nazarda tutuvchi loyihaning texnik ekspertizasida ekspert quyidagiga alohida e'tibor qaratishi lozim:

- a. Xom ashyoning zavodga yaqinligi
- b. Loyihaning iqtisodiy samaradorligi
- c. Zavodning yakuniy iste'molchilarga yaqinligi
- d. Transport infratuzilmasining rivojlanganligi

8. Investitsiya loyihalari texnik tahlilining vazifasi nimalardan iborat?

- a. Loyiha maqsadiga mos loyiha texnologiyasini aniqlash, mahalliy sharoitlar, kapitalga egalik qilish imkoni, xom ashyo va shu kabilarni rejalashtirish va loyiha bo'yicha paydo bo'ladigan texnik muammolarni hal etishdan iborat.
- b. Investitsiya loyihalaridagi texnika va texnologiyalarning buzilishini oldini olishdan iborat.
- c. Investitsiya loyihalarida texnik xisob-kitoblarni aniq bajarishdan iborat.
- d. Investitsiya loyihalarida ma'naviy va jismoniy eskirgan texnika va texnologiyalar-dan foydalanishni oldini olishdan iborat.

9. Investitsiya loyihalarini texnik baholash nima maqsadda amalga oshiriladi?

- a. Investitsiya loyihasini amalga oshirishda kelib chiqishi mumkin bo'lgan texnik muammolarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish maqsadida
- b. Investitsiya loyihasini amalga oshirishda texnik jihatdan boshqa raqobatchilar-dan orqada qolmaslik maqsadida
- c. Investitsiya loyihasini amalga oshirishda eng zamonaviy va ilg'or texnikalardan foydalanish maqsadida
- d. Investitsiya loyihasini amalga oshirishda arzon va sifatli texnikalardan foydalanish maqsadida

10. Mulkni tasarruf etish deganda nimani tushunasiz?

- e. Mol-mulk taqdirining mustaqil hal qilinishi. U mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berish kabi hollar orqali ro'y beradi

- f. Mol-mulkka egalik qilish va unday foydalanish
- g. Mol-mulkka egalik qilish huquqi
- h. Mol-mulkka egalik qilish huquqini sotib olish va sotish


4. T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Investitsiya loyihalari texnik tahlilining vazifasi - bu loyiha maqsadiga mos loyiha texnologiyasini aniqlash, uning loyihadan foydalanuvchilar guruhiga ta'siri, mahalliy sharoitlar, shu jumladan, kapitalga egalik qilish imkoni va uning qiymati, xom ashyo, ishchi kuchi, bozor ko'lamini hamda loyihani rejalashtirish imkoniyatlaridan iborat va u loyiha bo'yicha paydo bo'ladigan texnik muammolarni hal etishga qaratilgan.


Texnologiyani baholashning asosiy vazifalari - turli texnologiyalarning jamiyatga va milliy iqtisodiyotga (xarajat va foydalar tahlili, bandlik va daromadlar ta'siri, inson ehtiyojlarini qondirish va boshqalar), atrof-muhitga (ekologik ta'sirni baholash) ta'sirini aniqlash va baholash, korxona nuqtai nazaridan texnik-iqtisodiy amalga oshirishni aniqlash hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini texnik tahlil qilishning vazifasi bo'lib loyiha maqsadi nuqtai nazaridan eng qulay bo'lgan texnologiyalarni, loyihadan manfaat ko'rishi mumkin bo'lgan aholi kontingentini, mahalliy sharoitlarni, kapital, xomashyo va ishchi kuchidan foydalanish imkoniyatlarini va ular bahosini, bozor hajmini, shuningdek loyihani rejalashtirish hamda amalga oshirishning mavjud va potentsial imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi.


5. Investitsiya loyihasining texnik tahlili nimalarning bajarilishini ta'minlashi lozim? Quyidagi chizmani to'ldiring.



6. Investitsiya loyihalarini texnik tahlil qilishda nimalarni ko'rib chiqish va belgilash kerak bo'ladi? Quyidagi chizmani to'ldiring.



7. Investitsiya loyihalarini texnik tahlil qilishda texnologik risklarni pasaytirish bo'yicha bir qancha tadbirlar amalga oshiriladi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish sabablari nimada va u qanday oqibatlarga olib kelishi yuzasidan xulosa shakllantiring.



7-mavzu. Investitsiya loyihalarining tijorat tahlili

Topshiriqlar

1. Quyida keltirilgan nazorat va muhokama uchun savollarga javob toping.

1. Investitsiya loyiholari tijorat tahlili nima uchun kerak?
2. Investitsiya loyiholari tijorat tahlilining ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Investitsiya loyiholari tijorat tahlili yo'nalishlarini aytib bering.
4. Marketing tadqiqotlari nima?
5. Investitsiya loyihalarida marketing xarajatlari tahlilini izohlab bering?
6. Investitsiya loyiholari hayotiylikining har bir bosqichida tijorat tahlilining ahamiyati nimalardan iborat?
7. Mahsulotning bozor bahosi qanday shakllanadi?
8. Bozor segmentatsiyasi, turlari.
9. Tijorat tahlili qanday yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim?

2. T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Tijorat loyiha tahlili loyiha tahlilining tijorat risklarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bunda , savdo prognozlari, Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar(xizmatlar) narxlari, etkazib beruvchilardan sotib olinadigan mahsulotlar (xizmatlar)ning xajmi va narxlari, tomonlar ishonchligi aniqlash imkonini beradi.

Investitsiya loyihalarida xarajatlar tahlili, shu jumladan, ishlab chiqarish xarajatlari tahlili asosida hamda loyiha marketingi tahlili bosqichidagi sotish rejasi doirasida investitsion loyiha tahlili amalga oshiriladi.


Ekspertiza quyidagi tahlillarni o'tkazishni talab qiladi.

- resurslarga erishish imkonini, ularni sifati va kelajak narxlarini baholash;

- mahsulotga bo'lgan talab, marketing bo'yicha tadbirlar va o'rnatilishi mumkin bo'lgan ehtimolli narxlar;

- yagona bo'lib qoluvchi fermer, xususiy tadbirkor, xususiy va davlat korxonasini tijorat bo'yicha yashay olish qobiliyatini belgilovchi xarajat va daromadlari.

3. Quyidagi chizmani to'ldiring



4. Quyidagi ma'lumotni o'rganing va fikringizni bildiring.

Marketing tadqiqotining maqsadi, ushbu axborotning interpretatsiyasi va tahlili hamda marketing yoki strategik xarakteriga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilishga asos yaratish. Marketing tadqiqoti asosan raqobat va talab (sotish va iste'mol)ning iste'molchilarning hojatlari, marketing instrumentlari va raqobatlashuvga qaratilgan tahlildan iborat.

Ishlab chiqarish maqsadli mahsulotlar bozori quyidagi xususiyatlarga ega:

- sotib olingan mahsulotlar keyingi ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladi;

- iste'molchilarning talablari ko'pincha aniq belgilangan maqsadlarga asoslanadi;

- qaror qilish jarayoni ko'pincha murakkab bo'ladi va tashkilot ichida o'z fikriga ega bo'lgan ko'p sonli a'zolar ishtirokida bo'ladi;

- iste'molchi ko'pincha mahsulot haqida chuqur yoki maxsus bilimlarga ega bo'ladi;

- iste'molchi bilan ilk aloqa va shartnomani imzolash uchun ko'p vaqt o'tishi mumkin.

5. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

ME'YORIY-HUQUQIY HUJJAT,	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 yanvardagi 554-sonli «Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyundagi 110-sonli «Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori
MAQSADI		
BELGILANGAN VAZIFALAR		

6. Test savollari

1. Mahsulot sotish hajmining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir etadi?

- Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, oborotdagi tayyor mahsulot qoldig'ini yil boshidagiga nisbatan o'zgarishi, inventarizatsiya natijasida aniqlangan mahsulotlarning ortiqchaligi yoki kamomadi, assortiment va sifat o'zgarishlari
- Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, inventarizatsiya natijasida aniqlangan mahsulotlarning ortiqchaligi yoki kamomad
- Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, oborotdagi tayyor mahsulot qoldig'ini o'zgarishi, assortiment va sifat o'zgarishlari
- Mahsulotlarning assortiment va sifat o'zgarishi, oborotdagi tayyor mahsulot qoldig'ining o'zgarishi

2. Sotishdan olingan yalpi foyda qanday topiladi?

- Sotishdan olingan sof tushum minus ishlab chiqarish tannarxi
- Sotishdan olingan sof tushum minus o'zgaruvchan xarajatlar
- Sotishdan olingan sof tushum minus o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar
- Sotishdan tushum minus sotish hajmiga soliqlar (qo'shilgan qiymatga soliq, aktsiz, reklama va boshqa sotishlar hajmiga soliqlar)

3. Sotilgan mahsulot rentabelligi qanday aniqlanadi?

- $(\text{Sotishdan olingan yalpi foyda} \times 100) / \text{mahsulot sotishdan tushgan sof tushum}$
- $(\text{Mahsulotni sotishdan tushgan tushum} \times 100) / \text{yalpi foyda}$
- $(\text{Sotishdan yalpi daromad} \times 100) / \text{mahsulot sotishdan tushgan tushum}$
- $(\text{Mahsulotni sotishdan tushgan yalpi tushum} \times 100) / \text{yalpi sarflar}$

4. Tahlilning qaysi turida bozor, marketing tamoyili, asosiy raqobatchilar, istiqboldagi talab, pirovard iste'molchi hatti-harakati va h.k. masalalar o'rganiladi?

- a. Tijorat
- b. Institutsional
- c. Moliyaviy
- d. Ijtimoiy

5. Loyiha bo'yicha marketing jihatlarini, asosan, nimalarni o'z ichiga oladi?

- a. Loyiha uchun sarflanadigan resurs va xizmatlarga va ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sotilishiga (marketingi) tegishli tadbirlarni
- b. Loyiha bo'yicha marketing tadqiqotlarini
- c. Loyiha bo'yicha bozor muhitini
- d. Tijorat bo'yicha raqobatchilarini

6. Pul oqimi to'g'risidagi hisobot qaysi davrga tuziladi?

- a. Yarim yillik va yillik
- b. Yil bo'yicha
- c. Choraklik, yarim yillik, 9 oylik, yillik
- d. To'liq hisobot davri bo'yicha

7. Kapital bozorida stavkalar oshirilganda, qat'iy belgilangan daromadlilikka ega qimmatli qog'ozlar portfelinin bozor bahosi

- a. Kamayadi
- b. Oshadi
- c. O'zgarmaydi
- d. To'liq javob yo'q

8. Sezuvchanlikni tahlil qilishda investitsiya loyihalari natijalariga qanday omillar guruhi ta'sir qiladi?...

- a. Loyiha tashkilotining imidji (gud vill)
- b. Tushum va xarajatlarga ta'sir etadigan omillar
- c. Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar
- d. Mahsulotning sifati

9. Korxona tomonidan mahsulot sotish hajmiga nisbatan qanchalik ko'p investitsiyalar amalga oshirilsa, operatsion koeffitsient shuncha...

- a. Past bo'ladi
- b. Baland bo'ladi
- c. O'sib boradi
- d. Pasayib boradi

10. Soliqdan keyingi foyda – 140,0 sotish hajmi – 700,0 so'm bo'lsa, sotish rentabelligi nechaga teng?

- a. 20%
- b. 5%
- c. 25%
- d. 26%

11. Marketing tadqiqotlarining asosiy qismlaridan biri bo'lmish tovar va xizmatlar bahosini shakllantirish orqali nimalarni aniqlash mumkin?

- a. Bozordagi tovar va xizmatlarga bo'lgan talab darajasini, sotish xajmini, korxona faoliyatining rentabelligini.
- b. Maxsulotga ketgan o'zgaruvchan xarajatlarni.
- c. Bozordagi inflyatsiya va risk darajasini.
- d. Maxsulotning sifatini va bozordagi narxini

12. Investitsiya loyihalari marketing tahlili o'z tarkibiga qanday tahlillarni qamrab olishi lozim?

- a. Iste'molchilar va raqobatchilar tahlilini
- b. Investorlar va iste'molchilar tahlilini
- c. Raqobatchilar va mol etkazib beruvchilar tahlilini
- d. Tashqi va ichki bozor iste'molchilari tahlilini

8-mavzu. Investitsiya loyihalari qatnashchilarining institutsional tahlili

Topshiriqlar


1. Quyidagi jadvalni to'ldiring

Tushuncha	Izoh
	Pul yoki tovar shaklida beriladigan, qaytarishlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, foizlilik sharti asosida beriladigan qarz.
Investitsiya	
	xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati sub'ektlari.
Loyiha administratori	
	bu loyihaning smeta hujjatlarini ishlab chiquvchi tashkilot bo'lib, xalqaro tajribalarda bular arxitektor va injenerlar ham bo'lishi mumkin.
Loyiha injeneri	
	loyiha boshqaruvchisi, ya'ni loyiha ishtirokchilarining faoliyatini bevosita boshqaruvchisi, ular tuzilgan shartnoma bo'yicha loyihaning bajarilishi va ishga tushirilishi bo'yicha nazorat olib boradilar.
Texnik-iqtisodiy asos	
Kreditor	

2. Nazorat va muhokama uchun savollarga javob bering.

1. Investitsiya loyihalari qatnashchilarining institutsional tahlili mazmuni nima?
2. Investitsiya loyihalari qatnashchilarining institutsional tahlilining ahamiyati nimada?
3. Investitsiya loyihalari qatnashchilarining institutsional tahlilining asosiy yo'nalishlari nima?
4. Investitsiya loyihalari qatnashchilarining institutsional tahlilida nimalarga e'tibor qaratish kerak?

3. Quyidagi chizmani to'ldiring.



4. Quyidagi ma'lumotni o'rganing va fikringizni bayon eting.

T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Institutsional tahlil loyihalarni samarali amalga oshirish va ekspluatatsiya qilishga, shuningdek mavjud tashkilotlarni mustahkamlash, malakali mutaxassislar bilan to'ldirishga ko'mak berishi lozim.

Investitsiya loyihalarini institutsional tahlildan maqsad loyiha amalga oshirilayotgan makondagi tashkiliy, huquqiy, siyosiy va ma'muriy vaziyat (muhit) ga baho berish hamda loyihaga jalb etilgan tashkilotlarning imkoniyatlarini mustahkamlash chora-tadbirlari borasida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tavsiyalar quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- a) menejment uslublari va usullari, shu jumladan monitoring va baholash;
- b) tashkiliy struktura, undagi o'zgarishlar;
- v) rejalashtirish, shu jumladan investitsiyalarni joylashtirishni rejalashtirish;
- g) xodimlar tarkibini to'ldirish va o'qitish (o'rgatish);
- d) moliyaviy faoliyat, shu jumladan moliyaviy faoliyatni boshqarish, smetalar tuzish, buxgalteriya hisobi va taftish;
- e) loyihalarni moddiy texnik ta'minoti;
- j) ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish tizimlari;
- z) tashkilotlararo muvofiqlashtirish;
- i) alohida sektorlarga nisbatan siyosat masalalari.

5. Test savollari

1. Investitsiya loyihalarini institutsional tahlil qilishdan asosiy maqsad nima?

- a. Loyiha amalga oshirilayotgan makondagi tashkiliy, huquqiy, siyosiy va ma'muriy vaziyat (muhit)ga baho berish, loyihaga jalb etilgan korxonalar imkoniyatlarini mustahkamlash chora-tadbirlari borasida tavsiyalar ishlab chiqish
- b. Investitsiya loyihalari bozorida tahlil qilinayotgan loyihaning o'rnini baholash
- c. Loyiha amalga oshirishda unda qatnashadigan barcha institutlar faoliyatini kompleks o'rganish
- d. Loyihani amalga oshirishda ishtirok etayotgan barcha institutlar faoliyatini mustahkamlash chora-tadbirlari borasida tavsiyalar ishlab chiqish

2. Bankning kredit qo'mitasi tomonidan kredit berish masalasini ko'rib chiqishiga va ijobiy qaror chiqarishiga nima asos bo'ladi?

- a. Loyiha bo'yicha to'liq hujjatlarning va ma'sul tashkilotlarning xulosalarini mavjudligi
- b. Davarxitektqurilish qo'mitasining ekspert xulosasi
- c. Tanlov komissiyasining xulosasi

d. Kredit olish uchun berilgan ariza


3. Loyihani amalga oshirish uchun zaruriy institutlar tashkil etishga, asosan, uch guruh omillar aks ta'sir ko'rsatadi. Bular:

- a. Noqulay siyosiy shart-sharoitlar (siyosiy omillar); loyiha oldiga qo'ygan maqsadlarining murakkabligi; loyihaning investitsiyadan keyingi bosqichiga e'tiborsizlik
- b. Texnik, moliyaviy, ijtimoiy
- c. Bozor holati, raqobat va menejment
- d. Risklar

4. Markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalanadigan investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish tartibi qaysi yuqori organ tomonidan belgilanadi?

- a. Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.
- b. Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilanadi.
- c. Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.
- d. Oliy Majlis tomonidan belgilanadi.

5. Quyidagi chizmani o'rganing va fikringizni bildiring.



9-mavzu. Investitsiya loyihalarining ijtimoiy va ekologik ekspertizasi Topshiriqlar

1. Nazorat va muhokama uchun savollarga javob toping.

1. Investitsiya loyihalarining ijtimoiy va ekologik ekspertizasi nima uchun kerak?
2. Investitsiya loyihalarining ijtimoiy va ekologik ekspertizasi ahamiyati nimada?
3. Investitsiya loyihalarining ijtimoiy va ekologik ekspertizasida tahlil yo'nalishlari nimada?
4. Investitsiya loyihalarining ijtimoiy va ekologik ekspertizasi muammolarini bilasizmi?

2. Quyidagi ma'lumotni o'qing va fikringizni bildiring. T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.


Investitsiya loyihalarini ijtimoiy tahlil etishning zarurligi shundaki, iqtisodiyotda amalga oshiriluvchi har qanday investitsiya loyihasining korxona va tashkilot, tarmoq, hudud, mintaq va mamlakat darajasidagi iqtisodiy samaradorligi bilan bir qatorda ijtimoiy samaradorligi ham aniqlanishi lozimki, bu loyihalarining muayyan hudud, mintaq va mamlakat darajasidagi aholi manfaatlariga mos kelishi, xizmat qilishi, jamiyat ravnaqi va farovonligi uchun zarur ekanligi kabi ijtimoiy zaruriyat va ehtiyojlar bilan izohlanadi.

Ijtimoiy tahlilning amalga oshirilishi investitsiya loyihasining ijtimoiy ahamiyati darajasini aniqlash va belgilab berishda muhim o'rin egallaydi. Bunda aholining ish bilan bandligini ta'minlash, ularning ijtimoiy himoyasini yuzaga chiqarish va oshirish, mehnat muhofazasining qonuniy ijrosini ta'minlash, aholining zaruriy iste'mol tovarlari va xizmatlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini qondirish, ularga arzon baholi, yuqori sifatli iste'molbop, raqobatdorbosh tovar va xizmatlar taklifi ko'lamini kengaytirish asosida bozorning kerakli tovar va xizmatlar bilan to'ldirilishi ta'minlanishiga amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan investitsiya loyihasining xizmati va ta'siri aynan ijtimoiy tahlil va baholash asosida o'rganiladi va aniqlanadi.

Loyihalarining ekologik ekspertizasi loyihani amalga oshirish joizligini aniqlaydi. Bunday ekspertiza quyidagilarni aniqlash

maqsadlarida o'tkaziladi: istiqboli aniqlangan xo'jalik va boshqa faoliyatning uni amalga oshirish haqida qaror qabul qilinishiga qadar bo'lgan bosqichlarda ekologik talablarga muvofiqligi; ko'zlangan faoliyatning atrof-muhitga va fuqarolar sog'ligiga ta'sir ko'rsatishi va ekologik xavfliligi darajasi; atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha nazarda tutilayotgan chora-tadbirlarning yetarli bo'lishi va asoslanganligi.

3. Quyidagi chizmani to'ldiring.



4. Quyidagi tushunchalar izohini keltiring.

Tushuncha	Izoh
chiqindilarning paydo bo'lish normasi	
chiqindilarning paydo bo'lish normativi	
atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalar tashlamalari va oqovalarini, chiqindilarning paydo bo'lishi va	

joylashtirilishini normalash	
atrof-muhitni taxminiy-xavfsiz ifloslantirish darajasi (TXTD)	
kontsentratsiyaning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdori (KChM)	
tashlamalarning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdori (TChM)	
oqovaning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdori (OChM)	
sanitariya-himoya zonasi	
texnik jihatdan erishiladigan ko'rsatkichlar	
chiqindilarni utillashtirish	

5. Quyidagi "Ijtimoiy-madaniy soha xarajatlarining tarkibi"ni o'rgangan holda tegishli xulosalarni shakllantiring

Ijtimoiy-madaniy xizmat sohasi	Ijtimoiy himoya	Ijtimoiy sug'urta
Ta'lim	16 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa	Pensiya sug'urtasi
Madaniyat	Ishlamaydigan onalarga bolani 2 yoshgacha parvarishlash uchun to'lanadigan nafaqa	Ishsizlik bo'yicha sug'urta
Fan	Ishlaydigan onalarga bolani 2 yoshgacha parvarishlash uchun to'lanadigan nafaqa	Mehnat qilish qobiliyatini yo'qotganlik bo'yicha sug'urta
Sog'liqni saqlash	Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam	Tibbiy sug'urta
Jismoniy tarbiya	Chernobil halokati oqibatlarini bartaraf etgan nogironlarga beriladigan nafaqa	
Ijtimoiy ta'minot	Stipendiya	
Bandlik xizmati	Ishsizlik nafaqasi	

10-mavzu. Investitsiya loyihasi bo'yicha risklar va ularni baholash

Topshiriqlar

1. Quyidagi savollarga javob bering.

1. O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni sanab bering.
2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi risklar, ularni boshqarish va baholash ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Investitsiya loyihalarini turli risklardan himoya qilish mexanizmlari mohiyati nimalardan iborat ?
4. Investitsiya loyihasini risklarini tasnifini turli tizimlari nimani anglatadi ?
5. Riskdan himoyalash imkoniyatlari nuqtai-nazaridan tasniflash nimalarni nazarda tutadi?
6. O'zbekiston eksportchilariga risklarni himoyasini taqdim etish maqsadida qaysi sug'urta kompaniyasi tashkil etildi ?

2. Quyidagi ma'lumotlarni o'rganing va T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Investitsion loyihalar kelajakka tegishli bo'lganligi sababli, ularni amalga oshirish natijalarini aniq taxmin qilish muammodir. Bunday loyihalar kutilishi mumkin bo'lgan risklar va noaniqliklarni hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Investitsion qaror bir qator kutilishi mumkin bo'lgan oqibatlarga ega bo'lgan hollarda, qaror riskli yoki noaniqliklarga ega deb ataladi.

Riskni ma'lum bir qarorni qabul qilish natijasida zahiralarni yo'qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo'shimcha xarajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin.

Risk - bu bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo'lib qolish ehtimolidir.

Loyiha riski - bu investitsion loyihani amalga oshirishga halaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig'indisidir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida risk - bu bo'lishi mumkin bo'lgan yoki bo'lmaydigan hodisa. Agar bu hodisa bo'lsa ijobiy (foyda, daromad yoki boshqa tushum) va salbiy (xarajatlar, zarar, yo'qotish) natija bo'lishi yoki hech qanday natija bo'lmasligi mumkin.

Riskni boshqarish turli faoliyat doiralarida riskni kamaytirish bo'yicha texnologiyalarni va bilimni talab qiladi. Hozirgi vaqtda riskni boshqarish faoliyatini quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin: 1) Riskni aniqlash. 2) Riskni baholash. 3) Riskni boshqarish choralari va usullarini tanlash. 4) Riskni oldini olish va nazorat qilish. 5) Riskni moliyalash. 6) Natijalarni baholash.

3. Quyidagi keys stadi topshirig'ini bajaring.

KEYS

«Mishka» MChJ: Korxona foydada qolish uchun, ishlab chiqarish hajmi miqdorini topish maqsadida “zararsizlik nuqtasini” aniqlash (lavha)

Kirish

- Investitsion loyiha uchun “Zararsizlik nuqtasi”ni aniqlash usuli yordamida mahsulot sotishdan kelgan tushum uni ishlab chiqarish harajatlarga teng bo'lgan holdagi sotish hajmi aniqlanadi. Agar sotish hajmi bu nuqtadan past bo'lsa, korxona zararlarni qoplashi mumkin, agar pul kirimi harajatlarga teng bo'lsa, korxona ishini zararsiz olib borayotgan bo'ladi. “Zararsizlik nuqtasi” tahlili investitsiya loyihasi quvvati yoki ishlab chiqarish hajmi miqdorini topish maqsadida qo'llaniladi. Agar ishlab chiqarish hajmi past bo'lsa, korxona zararga ishlayotgan bo'ladi. Bunday tahlil loyihani baholashda turli narh va qiymatni hisobga olish bilan bir qatorda zararsizlik darajasini hisoblashga imkon beradi. Shu munosabat bilan, korxona “Zararsizlik nuqtasi”ni aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu keysning maqsadi investitsiya loyihalari risklarini aniqlash, tahlil qilish va baholash, risklarni pasaytirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish yoki risk oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha malakalarini rivojlantirish.

Vaziyat: Korxonaning foydada qolish ehtimoli

«Mishka» MChJ bolalar uchun maxsus oyoq kiyim ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona oyiga 300 dona mahsulot ishlab chiqargan, tushumi esa 6 mln. so'mni tashkil qilgan edi. Biroq, bozorda mahsulotga bo'lgan talab keskin kamayib ketdi. Natijada korxonaning sotish hajmi ham mos ravishda kamayish riski paydo bo'ldi. Korxona rahbari zarar ko'rib ishlamaslik uchun tegishli mutaxassislariga mahsulot birligi bahosiga doimiy va o'zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlarining ta'sirini va ularning miqdori o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni, amalda zararsizlik nuqtasini aniqlab, tegishli qaror qabul qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish vazifasini topshirdi.

“Mishka” MChJ haqidagi axborot

1. Ob'ektning umumiy tavsifnomasi.

Ma'suliyati cheklangan jamiyat shaklidagi «Mishka» bolalar uchun maxsus oyoq kiyim ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona, Ta'sis shartnomasi va Ustav asosida tashkil etilgan bo'lib, ortopedik tibbiy

xizmat, va tijoratchilik va boshqa xo'jalik faoliyatini amalga oshirish maqsadlarida qatnashchilar omonatlarining birlashuviga asoslanadi. Quyidagilar korxona Muassislari hisoblanadi:

- Toshkent shahar hokimligining sog'liqni saqlash boshqarmasi;
- «Panda» mas'uliyati cheklangan jamiyati;
- «Simba» mas'uliyati cheklangan jamiyati;
- Qatnashchilar omonatlari hisobiga 50 mln. so'm miqdoridagi ustav fondi tashkil etilgan.
- «Mishka» korxonasining asosiy maqsadi tibbiyot xodimi tomonidan bolalarni kurikdan o'tkazib, uning ko'rsatmasiga binoan bolalarga oyoq kiyimi ishlab chiqaradi.

“Mishka” MChJ bolalar uchun maxsus oyoq kiyim ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona ma'lumotlari quyidagicha:

1. Bitta oyoq kiyimning sotish narhi - 20 000 so'm;
2. Bitta oyoq kiyimni tayyorlash uchun ketgan o'zgaruvchan harajatlar - 12 000 so'm;
3. Bir oydagi doimiy harajatlar – 1600 000so'm;
4. Korxona oyiga 300 dona oyoq kiyim ishlab chiqaradi.

Korxona rahbari oylik xarajat moddalari bo'yicha quyidagi jadvalni tuzishga muvaffaq bo'ldi:

1-jadval

300 dona tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlar

№	Xarajat nomlari	Summa
1.	Ijara xarajatlari	300 000
2.	Soliqlar xarajatlari	400 000
3.	Suv, gaz, noishlab chiqaruvchi bo'lim elektr iste'moli bo'yicha kommunal to'lovlar	350 000
4.	Tikuv mashinasiga ketadigan elektr energiya	150000
5.	Xom ashyo	1500 000
6.	Ishlab chiqaruvchi personal oylik ish haqi	1 650 000
7.	Yuk tashish harajatlari (benzin)	300 000
8.	Ma'muriyat boshqaruv apparati xarajatlari	550 000


Talaba uchun uslubiy ko'rsatmalar:

MUAMMO: bozorda mahsulotga bo'lgan talab kamayib ketgan bir paytda “Mishka” MChJ foydani saqlab qolish uchun qancha miqdorda mahsulot ishlab chiqarishi kerakligini, korxonaning zararsizlik nuqtasini aniqlash

Vazifa:

1. Korxonaning zararsizlik nuqtasini aniqlashda harajat turlari va tarkibini tahlil qilish.
2. 1-jadval ma'lumotlari asosida korxonaning o'zgaruvchan va doimiy xarajatlari qiymatini topish.
3. Mavjud ma'lumotlar asosida Korxonaning zararsizlik nuqtasini aniqlash.
4. Ushbu aniqlangan zararsizlik nuqtasi korxonaning faoliyati samaradorligini oshirishda qanday ahamiyatga ega?

4. Riskni pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar nimalarni o'z ichiga oladi? Quyidagi chizmani to'ldiring va tegishli xulosalarni shakllantiring.




5. Quyidagi tushunchalar izohini bayon eting.


Tushuncha	Izoh
Risk	
Investitsion risklar	
Spekulyativ risklar	
Fors major risklar	
Ekologik risklar	
Siyosiy risklar	
Transport risklari	
Tadbirkorlik risklari	

Moliyaviy risklar	
Kredit riski	

6. Korxona faoliyatida yuzaga keluvchi risklar tasniflang



7. Risklarni boshqarishning umumiy ko'rinishi o'rganing va o'z xulosangizni bayon qiling.



8. Masala.

Ikkita bir-biriga o'xshash bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda berilgan. Ikkala korxona uchun mahsulot birligi bahosi 25 AQSh doll. Agar ikkala korxona uchun mahsulot sotish hajmi 1500 dona mahsulot bo'lsa,

zararsizlik nuqtasini, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichini hamda havfsizlik indeksini toping.

Harajat turlari	1-korxona	2-korxona
Doimiy harajatlar		
1. Remont xizmatlari, AQSh doll.	1400	1500
2. Korxona ustama harajatlari, AQSh doll.	1900	2000
3. Ma'muriy harajatlar, AQSh doll.	3000	3500
4. Sotish harajatlari, AQSh doll.	1200	1200
Mahsulot birligiga ketgan o'zgaruvchan harajatlar		
1. Xom ashyo, asosiy materiallar, AQSh doll.	6	4
2. Boshqa materiallar, AQSh doll.	5	3,5
3. Ishchilarning ish haqi, AQSh doll.	5	6,5
4. Kommunal harajatlar, AQSh doll.	2	2
5. Energiya va texnik maqsadlarga harajatlar, AQSh doll.	1	1

9. Masala

Quyida berilgan 1 va 2 loyiha ma'lumotlariga asoslanib, ularning barqarorligini tahlil qiling va eng samaralisini tanlang. Bunda ikkala loyiha uchun loyiha muddati – 5 yilni; loyihalarga qo'yilgan investitsiyalar – 100 ming p.b. ni; kapitalning bahosi – 10% ni tashkil etadi. Loyihani amalga oshirishda yillar bo'yicha pul tushumi bir xil summani tashkil etadi.

Loyiha	Pul tushumlari, ming p.b.		
	Optimistik	Eng ko'p bo'lishi	Pessimistik
1	40	35	25
2	50	40	20

11-mavzu. Investitsiya loyihasi bo'yicha mulkni baholash va ko'chmas mulk bozorining tahlili

Topshiriqlar

1. Quyidagi savollarga javob toping.

1. Investitsiya loyihasi bo'yicha mulkni baholash va ko'chmas mulk bozorining tahlil qilishning qanday vazifalari mavjud?
2. Investitsiya loyihasi bo'yicha mulkni baholash va ko'chmas mulk bozorining tahlil yo'nalishlarini ko'rsating.
3. Investitsiya loyihasi bo'yicha mulkni baholash va ko'chmas mulk bozorining tahliliga izoh bering.
4. Investitsiya loyihasi bo'yicha mulkni baholash va ko'chmas mulk bozorining tahlil qilish muammolari nimada?
5. Ipotekani davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun qaknaqa xujjatalr taqdim etilishi kerak?
6. "Mulk", "ko'chmas mulk", "qiymat", va "narx" tushunchalarini izohlab bering.
7. Ko'chmas mulk qiymatini baholashning qanday usullarini bilasiz.
8. Mulkni baholovchi mustaqil tashkilotlar faoliyatiga izoh bering.
9. Ko'chmas mulk bozorining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflab bering
10. Ko'chmas mulk bozori rivojlanishining asosiy tendentsiyalarini izohlab bering.

2. T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Mulkni baholash - bu ma'lum bir qiymatga ega bo'lgan va vaqtinchalik qiymatiga ega bo'lmagan ob'ektni (bino, inshoot, asbob-uskunalar qisqa va uzoq muddatli vositalar) xaqiqiy bahosini belgilash va qayta belgilab berishni tahminlash. Mulkni baholash-ko'char va ko'chmas mulkni bozor narxdagi ifodasini aks ettirish. Mulkni baholashda bir qator ko'rsatkichlarga ahamiyat berilishi kerak, uni baholayotgan paytda mulkni tasnifiga, daromadliligi va harajatliligiga qarab va eng asosiysi mulkni xaqiqatdagi qiymatini narxdagi ifodasini aks ettirib berilishida baholovchi muassasalar asosiy o'rin tutadi.

Baholash jarayonining nazariy asosi bo'lib, baholash tamoyillarining tizimi hisoblanadi mulkdorning tasavvurlariga asoslangan;

Baholovchi tashkilot baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.


Baholovchi tashkilot o'z faoliyatida mustaqildir. Xizmatlarning iste'molchisi (bundan buyon matnda buyurtmachi deb yuritiladi) yoki boshqa manfaatdor shaxslarning baholovchi tashkilot faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Baholovchi tashkilot qonun hujjatlarida nazarda tutilgan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi va o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin, ochiq aktsiyadorlik jamiyati bundan mustasno. Bunda quyidagi majburiy shartlarga rioya etilishi kerak:

- baholovchi tashkilotning rahbari baholovchi bo'lishi;
- baholovchi tashkilotning shtat birligi tegishli malakaga ega bo'lgan baholovchilarning shtatdagi eng kam soniga doir, qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi;
- baholovchi tashkilotda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan miqdordagi ustav fondining mavjudligi;
- baholovchi tashkilotda baholovchi tashkilotning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi sug'urta polisining mavjudligi.

Baholovchi (baholovchilar) faqat bitta baholovchi tashkilotning muassisi (ishtirokchisi, aktsiyadori) bo'lishi mumkin.

3. Jahon amaliyotidagi baholash tamoyillarini mustaqil o'rganing.



4. Quyidagi tayanch iboralarni bir-biridan farqli jihatlarini bilib oling.

Mulkka egalik qilish mulkdorlik huquqining uning egasi qo'lida saqlanib turishini bildiradi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashti-rishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi. Ayrim hollarda mulkka egalik qilish uning egasi ixtiyorida saqlangan holda, undan amalda foydalanish esa boshqalar qo'lida bo'ladi. Bunga ijaraga berilgan mol-mulkni misol qilib keltirish mumkin.

Mulkdan foydalanish – bu mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishidir. Mol-mulkdan foydalanish yuz berganda u daromad olish uchun yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatilishini bildiradi.

Mulkni tasarruf etish – bu mol-mulk taqdirining mustaqil hal qilinishidir. U mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berish kabi hollar orqali ro'y beradi.

Narx – bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasidir.

Narx muammosi va uning tashkil topishi mexanizmi iqtisodiy nazariyada eng murakkab va asosiy hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida narx tizimi asosiy tashqiliy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Tovarlarni narxi tadbirkor uchun asosiy bir dastak hisoblanadi. U narxga qarab o'zining shaxsiy ehtiyojni qondirish yo'lida harakat qiladi.

5. Test savollari

1. Qaysi me'yoriy hujjatda baholashni o'tkazish va uning natijalaridan foydalanish huquqi belgilab berilgan?

- a. O'zbekiston Respublikasi «Baholash faoliyati to'g'risida»gi Qonunda
- b. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 8.05.2003 yildagi 210-Qarorida
- c. O'zbekiston Respublikasi Mulkni Baholash milliy standartida
- d. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.03.2008 yildagi 843-son Qarorida

2. Ob'ektni daromadli yondashish usuli bilan baholaganda buxgalteriya hisobotining necha yillik hisoboti zarur buladi?

- a. 3 yillik
- b. 4 yillik
- c. 5 yillik
- d. 1 yillik

3. Ob'ektni daromadli yondashish usuli bilan baholaganda ...

- a. Yillik tushumdan barcha xarajatlar olib tashlanib sof foyda orqali qisoblanadi.
- b. Yillik tushumdan faqat kommunal xarajatlari olib tashlanadi.
- c. Yillik tushumdan faqat arenda xarajatlari olib tashlanadi.
- d. Umumiy yillik tushum buyicha qisoblanadi.

4. Daromadli yondashish usuli bilan baholaganda qaysi muddatda olingan daromaddan foydalaniladi?

- a. Yillik daromad
- b. Oylik daromad
- c. Kvartal daromadi
- d. Yarim yillik daromad

5. Ko'char mulkni baholash bilan shug'ullanadigan baholovchi tashkilotlarning ustav kapitali miqdori qancha bo'lishi kerak?

- a. Eng kam ish haqining 1500 barobaridan kam bo'lmasligi kerak
- b. Eng kam ish haqining 1000 barobaridan kam bo'lmasligi kerak
- c. Eng kam ish haqining 2500 barobaridan kam bo'lmasligi kerak
- d. Eng kam ish haqining 500 barobaridan kam bo'lmasligi kerak

6. Ko'chmas mulkni baholashning qaysi yondoshuvi o'z ichiga quyidagi usullarni oladi: o'rindoshlik usuli, tiklash usuli, balans qiymati usuli va h.k.

- a. Xarajatli yondashuv
- b. Daromadli yondashuv
- c. Qiyosiy yondashuv
- d. Taqqoslama yondashuv

7. Qanday qiymat binoning pasporti bo'yicha belgilanadi?

- a. Balans qiymat
- b. Joriy qiymat
- c. Birlamchi qiymat
- d. Tiklash qiymati

8. Ko'chmas mulkni baholashga xarajatli yondashishning asosiy maqsadi nima?

- a. Ob'ektning nobozor qiymatini aniqlash
- b. Ob'ektning bozor qiymatini aniqlash
- c. Xarajatlarni hisoblash
- d. Daromadni hisoblash

9. Ko'chmas mulk bozorining sub'ektlari bu:

- a. Davlat, ko'chmas mulk mulkdorlari, ko'chmas mulk bozori infratuzilmasi, ko'chmas mulk operatsiyalarini rasmiylashtirish va ro'yxatga olish bilan shuqullanuvchilar
- b. Ko'chmas mulk bozorini o'rganuvchilar, ko'chmas mulk bozori infratuzilmasi, ko'chmas mulk operatsiyalarini rasmiylashtirish va ro'yxatga olish bilan huqullanuvchilar
- c. Ko'chmas mulk oldi-sotdisini o'tkazuvchilar
- d. Ko'chmas mulk savdosida vositachilar

10. Ko'chmas mulk ob'ektlariga nimalar kiradi?

- a. Yer uchustkalari va yer osti, ko'p yillik ekinlar; binolar va imoratlar; inshootlar
- b. Binolar va imoratlar; inshootlar

- c. Bino va inshootlar
- d. Uy-joylar; yer uchastkalari; binolar va imoratlar; inshootlar; tarixiy obidalar

11. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 83-moddasiga ko'ra ko'chmas mulk tarkibiga nimalar kiradi?

- a. Yer osti va yer usti boyliklari, yer uchastkalari, ko'p yillik daraxtlar; binolar va imoratlar; inshootlar
- b. Yer uchastkalari va yer osti, ko'p yillik ekinlar; binolar va inshootlar
- c. Qurib ishga tushirilgan binolar va inshootlar
- d. Yer osti va yer ustida joylashgan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq binolar va inshootlar

12. Ko'chmas mulk bahosini tasdiqlovchi hujjat bu:

- a. Ob'ektni batafsil o'rganishga asoslangan uning qiymat haqidagi ma'lumot
- b. Ko'chmas mul bozorida oluvchi va sotuvchi o'rtasida kelishilgan narx
- c. Ko'chmas mulkni foydalanishga topshirish jarayonida binoning texnik pasportida yozilgan balans qiymati
- d. Buxgalteriya balansida aks ettirilgan qiymati

13. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi qaysi sanadan e'tiboran kuchga kirgan?

- a. 01.07.1998 yil
- b. 01.08.1998 yil
- c. 01.07.1999 yil
- d. 01.08.1999 yil

14. O'zbekiston Respublikasining «Baholash faoliyati to'g'risida»gi Qonuni qachon, kim tomonidan tasdiqlangan va nechta moddadan iborat?

- a. O'zR Oliy Majlisining 19.08.1999 yildagi qarori bilan, 22 modda
- b. O'zR Adliya vazirligining 19.08.1999 yildagi qarori bilan, 22 modda
- c. O'zR Adliya vazirligining 19.08.2000 yildagi qarori bilan, 27 modda
- d. O'zR Oliy Majlisining 19.08.2000 yildagi qarori bilan, 27 modda

15. Bino (inshoot) pasporti nima?

- a. Bino va inshoot qaqida texnik va texnik-iqtisodiy ma'lumotlarni, uning texnik holati va binoning butun xizmat qilish muddati davomidagi qo'rilish konstruktsiyalarini saqlash va ta'mirlash bo'yicha bajarilgan ishlarni qisobga olgan xujjat
- b. Bino va inshoot qaqidagi texnik va texnik-iqtisodiy ma'lumotlarni qisobga olgan va ularning texnik holatini baholash bo'yicha ma'lumotlar jamlanagan jarayon
- c. Binoning kachon kurilganligi, kaerda joylashganligini, uning maydoni qanchaligini aks ettiruvchi xujjat
- d. Bino va inshoot xaqidagi texnik va texnik-iqtisodiy ma'lumotlarni qisobga olgan ma'lumotlar

12-mavzu. Investitsiya loyihasini amalga oshirishda inflyatsiya ta'sirini baholash

Topshiriqlar

1. Nazorat va muhokama uchun savollarga javob bering.

1. Investitsiya loyihasini amalga oshirishda inflyatsiya ta'sirini baholash muammolarini bilasizmi?
2. Investitsiya loyihasini amalga oshirishda inflyatsiya ta'sirini baholashning zarurligi nimada?
3. Investitsiya loyihasini amalga oshirishda inflyatsiya ta'sirini baholashning jahon amaliyotini bilasizmi?
4. Investitsiya loyihasini amalga oshirishda inflyatsiya ta'sirini baholash yo'nalishlarini aytib bering.

2. T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Inflyatsiya lotincha “inflatio” so'zidan olingan bo'lib “ish”, “bo'rtish”, “ko'pchish” degan ma'noni anglatadi. Bu so'z XIX asrning o'rtalaridan boshlab iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy termin sifatida ishlatilguncha qadar, u tibbiyotda xavfli o'sma kasalini ifodalashda qo'llanilgan.

Inflyatsiyaning asosiy sababi - bu xalq xo'jaligining turli sohalari o'rtasida vujudga kelgan nomutanosiblikdir. Bu avvalam bor jamg'arma va iste'mol o'rtasidasidagi, talab va taklif, davlatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muomaladagi pul massasi va xo'jaliklarning naqd pulga bo'lgan talabi o'rtasidagi nomutannosibliklardan iboratdir.

Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi omillarga qarab uning sabablarini ichki va tashqi sabablarga bo'lish mumkin.

Inflyatsiya quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Tovar va xizmatlar bahosining uzluksiz va tartibsiz o'sib borishi natijasida pulning qadrsizlanishi va uning sotib olish qobiliyatining tushib borishi.

2. Chet el valyutasiga nisbatan milliy valyuta kursining tushib ketishi.

3. Milliy pul birligida oltin narxining oshib borishi va boshqalar.

Hozirgi davr inflyatsiyasi birinchidan; pul talabining tovar taklifidan oshishi natijasida pul muomalasi qonunining buzilishi; ikkinchidan; - ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar salmog'ining o'sishi natijasida tovarlar bahosining oshishi va shu sababli pul massasining ortib borishi bilan ifodalanadi.

Inflyatsiyaning asosiy sababi - bu xalq xo'jaligining turli sohalari o'rtasida vujudga kelgan nomutanosiblikdir. Bu avvalam bor jamg'arma va iste'mol o'rtasidasidagi, talab va taklif, davlatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muomaladagi pul massasi va xo'jaliklarning naqd pulga bo'lgan talabi o'rtasidagi nomutannosibliklardan iboratdir.

3. Quyidagi test savollariga javob bering.

1. Xalqaro amaliyotda inflyatsiyaning nechta turi mavjud?

- a. Sudraluvchi, shiddatli, giperinflyatsiya
- b. Talab va ishlab chikarish inflyatsiyasi
- c. Bo'g'iq inflyatsiya va giperinflyatsiya
- d. Sudraluvchi, shiddatli

2. Yorqin ifodalangan inflyatsiyaga qarshi byudjet-soliq siyosati nimani ko'zda tutadi?

- a. Soliqqa tortish darajasining ko'tarilishi va davlat xarajatlarining qisqarishini
- b. Soliq tushumlarining ham, davlat xarajatlarining ham qisqarishini
- c. Soliqlarning o'sishi va davlat xarajatlarining yuqoriroq darajasini
- d. Soliqlarning kamayishi va davlat xarajatlarining yuqoriroq darajasini

3. Joriy va doimiy narxlar. Bular qanday narxlar?

- a. Inflyatsiya natijasida vaqt mobaynida o'zgaradigan narxlar
- b. Bozorda yuzaga chiqqan narxlar
- c. Mahsulot qiymatini absolyut pul miqdorida ko'rsatib beruvchi narxlar
- d. O'zgarmaydigan narxlar

4. Narx turlari qaysi bandeda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a. Bozor (aniq), xufyona, absolyut, nisbiy, joriy, doimiy narxlar
- b. Bozor (aniq), absolyut narx
- c. Bozor (aniq), xufyona, absolyut, joriy, kelgusi narxlar
- d. Joriy va doimiy narxlar

5. Absolyut narxlar bu-?

- a. 1 mahsulot qiymatini absolyut pul miqdorida ko'rsatib beradi
- b. 1 mahsulot qiymatini davlat tomonidan aniqlanishi
- c. Talab va taklif yuzaga chiqqan narx
- d. Bozordagi narx

6. Nisbiy narxlar nima?


- a. 1 mahsulot qiymati orqali boshqa mahsulot qiymati ko'rsatib beriladi
- b. 1 mahsulot qiymatini absolyut pul miqdorida ko'rsatib beradi
- c. 1 mahsulot qiymatini davlat tomonidan aniqlanishi
- d. Bozordagi narx

7. Inflyatsiyani hisoblashda necha xil baho indeksidan foydalaniladi?

- a. Bazisli va zanjirli baho indekslari
- b. Oddiy va murakkab baho indekslari

- c. Bazisli va oddiy baho indekslari
- d. Zanjirli va murakkab baho indekslari

4. Inflyatsiyaning qanday turlarini bilasiz? Quyidagi jadvalni to'ldiring va har birini izohini keltiring.



13-mavzu. Investitsiya loyihasini tasdiqlash jarayoni

Topshiriqlar

1. Nazorat va muhokama uchun savollarga javob bering.

1. Investitsiya loyihasini tasdiqlash jarayoni mazmunini tushuntirib bering.
2. Investitsiya loyihasini tasdiqlash jarayoni va bosqichini tushuntirib bering.
3. Investitsiya loyihasini tasdiqlash jarayoni tartibi va talabini tushuntirib bering.
4. Investitsiya loyihasini tasdiqlash jarayoni qanday amalga oshiriladi?
5. Bankning kredit qo'mitasi tomonidan qarorlar qabul qilish jarayonini izohlab bering?
6. Kredit shartnomasining asosiy qoidalari nimalardan iborat?
7. Investitsiya loyihasini moliyalashtirishga qabul qilish mexanizmini tavsiflab bering?
8. Investitsiya loyihasi bo'yicha monitoring rejasi nimalarni o'zi ichiga oladi?

2. T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Kreditning bahosi, ssuda kapitali bozoridagi talab va taklifning nisbatini o'zida aks ettiradi va u bir qator omillarga bog'liq bo'ladi:

- bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi (inqiroz davrida ssuda foizi o'sadi va aksincha, yuksalish davrida esa pasayadi);
- inflyatsiya jarayoni suratlari (amaliyotda ssuda foizining inflyatsiya o'sish sur'atlaridan orqada qolishi uchrashi mumkin);
- tijoart banklarni kreditlash jarayonini amalga oshiruvchi Markaziy bank orqali davlat kreditini tartibga solishning samaradorligi;
- xalqaro kredit bozoridagi holat (masalan, biror mamlakatda kredit bo'yicha foiz stavkasining oshishi shu mamlakatga chet el kapitalining oqib kelishiga olib keladi va bu milliy bozorlar holatiga tasir ko'rsatadi.);
- jismoniy va huquqiy shaxslar pul jamg'armalarining dinamikasi (ularning hajmi qisqargan holda ssuda foizi o'sadi);
- potentsial qarz oluvchilarning kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojini aniqlab beruvchi ishlab chiqarish dinamikasi;
- ishlab chiqarishning mavsumiyligi (chet el amaliyotida banklar mavsum davrida kreditlar bo'yicha foizlarni oshiradilar);
- davlat tomonidan beriladigan kredit miqdori bilan davlatning ichki qarzlari o'rtasidagi nisbat (ssuda foizi ichki davlat qarzlari o'sishi bilan birga o'sib boradi).

Kredit shartnomasi qarz munosabatlarining o'ziga xos, mustaqil turidir va uning o'ziga xos asosiy talablari mavjud. Bular: kredit maqsadli bo'lishi shart; kreditning yig'indisi aniq belgilangan bo'lishi kerak; kreditning qoplash tartibi aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim; kreditning muddati ko'rsatilishi shart; kredit berganligi uchun bank oladigan haq ko'rsatilish shart.

Qarzni qaytarmaslikning oldini olish maqsadida qarz oluvchi bankka quyidagi ta'minot turlarini taqdim etadi: mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi; bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati; uchinchi shaxsning kafilligi; sug'urta kompaniyasining qarz oluvchi tomonidan kredit to'lanmasligi xatarini sug'urta qilish to'g'risidagi sug'urta varaqasi; mahalla, qishloq yoki ovul fuqarolari yig'inining kafolati.

3. Quyidagi test savollariga javob toping.

1. Mijozning kredit shartnomasi shartlarida ko'rsatilgan ssuda uchun foiz to'lovlari va ssudani qaytara olish qobiliyati nima?

- a. Kreditga layoqatlilik
- b. Daromadlilik

- c. Unumdorlik
- d. Likvidlilik

2. Loyihalarni tanlab olishda afzallik berilmaydigan loyihalar

- a. Korxona ustav fondini tashkil etishda qarz mablag'larini talab etuvchi
- b. Eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi
- c. Yangi ish joylarini tashkil etishni nazarda tutuvchi
- d. Kichik va xususiy tadbirkorlik biznes bo'yicha

3. Strategik muhim ahamiyatga molik bo'lgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yuzasidan hukumat kafolati kim tomonidan beriladi?

- a. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- b. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- c. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
- d. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi


4. Investitsiya dasturiga kiritiladigan aniq loyihani tanlab olishning birinchi bosqichi qanday amalga oshiriladi?


- a. Loyiha aniq tarmoq va mintaqani rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda oldindan baholanadi.
- b. Loyiha aniq mintaqani rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda oldindan baholanadi.
- c. Loyiha aniq bir tarmoqni rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda oldindan tahlil qilinadi.
- d. Loyiha ma'lum bir hududni rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda oldindan tahlil qilinadi.

5. Investitsiya dasturiga kiritiladigan aniq loyihani tanlab olishning ikkinchi bosqichi qanday amalga oshiriladi?


- a. Loyiha iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va mintaqalarini rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda tanlab olinadi.
- b. Loyiha iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda tanlab olinadi.
- c. Faqat iqtisodiy samaradorligidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich tanlab olinadi.
- d. Loyiha iqtisodiyotning ma'lum bir mintaqasini rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda tanlab olinadi.

4. Tijorat banklarining kreditlash jarayoni qanday bosqichlardan iborat bo'ladi






5. Investitsiya loyihalari samaradorligini ta'minlashda monitoringini o'tkazish tartibi tahlil qiling



6. Quyidagi chizmani to'ldiring.



AMALIY MASHG'ULOTNI BAJARISHDA TALABALAR UCHUN TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni. 1998 y. 30 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonuni. 1998 y. 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2014 y. 9 dekabr. Yangi tahrir.
4. O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonuni, 1992 yil 12 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni. 1999 y. 14 aprel.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4434-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4609-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 martdagi "2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720 sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 17 noyabrdagi "2015 yildagi O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2264-sonli Qarori
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2344-sonli Qarori
12. Prezidentimiz I.A.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan

Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi 16.01.2016 yil.

13. Балдин К.В., Рукосяев А.В., Передеряев И.И., Голов Р.С. инвестиционное проектирование: учебник. - М.: Дашков и К, 2014 г. - 366 с.

14. Бочков Д.В. Инвестиционное проектирование, М.: Директ-Медиа, 2016 г. - 68 с.

15. Голов Р.С., Балдин К.В., Передеряев И.И. Инвестиционное проектирование: Учебник – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2010 – 368 с.

16. Игошин Н.В. Инвестиции. Организация, управление и финансирование: Учебник. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 360 с.

17. Киселёва О. В., Макеева Ф. С. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 208 с.

18. Колмикова Т. С. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 204 с.

19. Лукасевич И. Я. Инвестиции. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2012. – 413 с.

20. Mamatov B.S, Xo'jamqulov D.Yu, Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. - T.: "Iqtisod – moliya", 2014 y. – 608 b.

21. Кангро М.В. Методы оценки инвестиционных проектов. – Ульяновск: УлГТУ, 2011. – 131 с.

22. Киселёва О.В., Макеева Ф. С. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 208 с.

23. Колмикова Т.С. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 204 с.

24. Межов И.С., Растова Ю.И., Бочаров С.Н., Межов С.И. Инвестиционный анализ. М.: НГТУ 2012 г. – 430 с.

25. Межов И.С., Межов С.И. Инвестиции. Оценка эффективности и принятие решений. М.: НГТУ 2011 г. – 380 с.

26. Оценка бизнеса: Учебное пособие /Под ред. В. Е. Есипова, Г. А. Маховиковой. 3-е изд. – СПб.: Питер, 2010. – 512 с.

27. Оценка бизнеса: Учебное пособие. Под ред. В.Е. Есипова, Г.А. Маховиковой. 3-е изд. – СПб.: Питер, 2010. – 512 с.

28. Подкопаева М., Федоришчева О. Экономическая оценка инвестиций. М.: ОГУ, 2012 г. – 217 с.

29. Проектное финансирование и анализ : учеб. пособие для бакалавриата и магистратури. / М. А. Федотова, И. А. Никонова, Н. А. Лисова. – М.: Юрайт, 2015. – 144 с.

30. Степочкина Е.А. Экономическая оценка инвестиций. М.: Директ-Медиа, 2014 г. - 366 с.

31. Управление рисками в условиях финансовой нестабильности. / Домашченко Д. В., Финогенова Ю. Ю. – М.: ИНФРА-М, 2015. - 240 с.

32. Чернов В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 321 с.

33. ZviBodie, Alex Kane, Alan J. Marcus. Investments, McGraw-Hill Education; 10th edition (September 9, 2013). Page- 1080.

34. Jonathan Berk, Peter DeMarzo. Corporate Finance.—3rd ed. Copyright © 2014, ISBN 978-0-13-299247-3. Page- 1104.

MUNDARIJA

Kirish	3
I. Talabalarni amaliy mashg'ulotda ishlashga qiziqtirish omillari qiziqtirish omillari	4
II. "Investitsiya loyihalari ekspertizasi" fanning maqsad va vazifalari	5
III. Amaliy mashg'ulotni o'tishda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati	6
IV. "Investitsiya loyihalari ekspertizasi" fanining har bir mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulottopshiriqlari.....	12
V. Amaliy mashg'ulotnibajarishda talabalar uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati.....	67